

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION
AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED
EDUCATION AND
RESEARCH**

ISSN 2181-3558

VOLUME 2, ISSUE 4

COLLECTION A

APRIL 2023



Tahririyat a'zolari
Editorial board

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent

Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent
Dexqonova M.Sh. f.f.d.
Hasanov A.M. fil.f.d.

Mas'ul kotib: M.Yusupov

BOSIM O'ZGARISHIGA ASOSLANGAN SARFNI O'LCHASH ASBOBLARI TAHLILI

Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o'g'li
Namangan muhandislik-qurilish instituti, tayanch doktorant

Xamidov Doniyor Baxodirovich
"O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DM Farg'ona filiali, bosh mutaxassis

Annotation. This article analyzes the principle of operation of flow measuring instruments, their types and advantages, based on changes in pressure used in production and industry.

Key words: flow meters, measuring instruments, rotameters.

Аннотация. В данной статье анализируется принцип действия расходомеров, их типы и преимущества в зависимости от изменения давления, применяемого на производстве и в промышленности.

Ключевые слова: расходомеры, измерительные приборы, ротаметры.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish va sanoatda foydalaniladigan bosimning o'zgarishiga asoslangan sarf o'lchash asboblari ishlash prinsipi, ularning turlari va afzalliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sarf o'lchagichlar, o'lchash asbobi, rotometr.

1. Kirish

Ishlab chiqarishda sarf to'g'risida axborot olish uchun quyidagi o'lchash usullari qo'llaniladi:

- 1) bosimlar farqi o'zgaruvchan sarf o'lchagichlar;
- 2) bosimlar farqi o'zgarmas sarf o'lchagichlar.


Bosimlar farqi o'zgaruvchan sarf o'lchagichlar ishlash prinsipi toraytirish moslamasida potensial energiyani qisman kinetik energiyaga aylanishi sababli hosil bo'layotgan bosimlar farqini sarfga bog'lik ravishda o'zgarishiga asoslangan. Ya'ni, diafragmadan o'tayotgan suyuqlik oqimining diafragmadan oldingi va keyingi bosimi qiymatlarini farqi o'zgarishi to'g'risidagi axborotni olishga asoslangan. $\Delta P = P_1 - P_2$ qiymatlari orasidagi farq sarf o'zgarishi bilan o'zgarib turadi. Bu bosimlar farqi oqim tezligi va modda sarfiga munosib bo'ladi. Demak, toraytirish qurilmasi hosil qilgan bosimlar farqi truboprovoddan o'tayotgan modda sarfining o'lchovi bo'lishi mumkin. Sarfning son qiymati esa difmanometr o'lchagan ΔP bosimlar farqi bo'yicha aniqlaniladi.

2. Asosiy qism

Suyuqlik gaz va bug'larning sarfini o'lchash uchun toraytirish qurilmasi sifatida standartli diafragmalar, soplolar, Vekturi soplosi va vekturi trubasi ishlatiladi. Quyida ko'rsatiladigan diafragma dumaloq teshikli yupqa diskdan iborat. Teshikning markazi truboprovod o'qida yotishi kerak. Oqimning torayishi diafragma oldida boshlanadi va undan o'tkach. Ma'lum masofadan keyin, o'zining

minimal kesimiga erishishadi. Undan keyin oqim tobora kengayib, truboprovodning to'liq kesimiga erishadi.

Q_m - massaviy sarf quyida sarfi o'lchanayotgan muxitga normal kamerali diafragmani o'rnatilishi va oqimda bosimning o'zgarish sxemalari keltirilgan




1-rasm. Truboprovodda diafragmani o'rnatilishi


Bosimlar farqi o'zgarmas sarf o'lchagichlar - rotametrlarning ishlashi qalqovich balandligini o'zgarishi bilan o'tish yuzasini o'zgarishi hisobiga P_1 va P_2 bosimlar farqi o'zgarmas xolatga kelib ($P_1 - P_2 = const$), qalqovichga ta'sir qilayotgan kuchlar tenglashishiga asoslangan. Shu sababli qalqovich muallaq turib qoladi va u o'lchanayotgan sarfga mos xolatni egallaydi. Qalqovich xolati bo'yicha sarf aniqlanadi.

Shishali va elektrik (metalli) rotametrlar. Rotametrlarning o'rnatilishi va qiyoslanishi qoidalari. Rotametrlar drossel rusumli asboblarga kiradi, ular suyuqliklar va gazlarning (havoning) sarflarini o'lchash uchun xizmat qiladi. Asboblarning quvurli o'tkazgich uchastkalarida vertikal (tikka) o'rnatiladi va o'lchanayotgan muhit oqimining pastdan yuqoriga o'tayotgan sarfini o'lchaydi. Sarfning o'zgarishi ularning o'tish kesimining o'zgarishiga olib keladi hamda asboblardagi bosimlar farqi har doim bir xil bo'lib qolaveradi va hisob natijalariga teng bo'ladi.

Rotametrlar shkalalari bir xil bo'linmali bo'lib, muhit bosimini yo'qotishlari doimiy bo'lganligi ularning afzalliklaridir.



2-rasm.




3-rasm.

Bosim farqlari o'zgarmas sarf o'lchagichlar yoki aylanib oqib o'tuvchi sarf o'lchagichlar. Rotametrlar (2-rasm) va sarf to'g'risidagi ma'lumotni masofaga uzatishga mo'ljallangan rotometr (3-rasm) sxemalari keltirilgan.

Tuzilishiga ko'ra rotametrlar shishali va metall rotametrlarga bo'linadi. Shishali rotametrlar ko'rsatuvchi, metallilari esa — shkalasiz datchiklardir, ular differensial-transformatorli asboblar bilan ishlashga mo'ljallangan.

Rotometr vertikal joylashgan konussimon naycha 1, uning ichida erkin harakat qiluvchi silindri rotator qalqovoch 2 joylashgan. U zanglamaydigan po'lat, dyuraluminiy yoki ebonitdan tayyorlangan.

Shunday qilib, qalqovochning holati o'zgarishi bilan qalqovoch va konussimon naychani ichki devorlari orasidagi o'tish kesimi o'zgaradi, natijada o'tish kesimidagi oqimning tezligi qalqovoch ko'ndalang kesimi yuzining birligidagi massaga tenglashguncha shu harakatda bo'ladi. Berilgan muhitning har bir sarfi kattaligiga qalqovochning tegishli holati mos keladi.



4-rasm. Shisha trubali rotametr.


Sarfni rotametr bilan o'lchashda o'lchashning pastki chegarasi 20% nominal qiymatiga teng. 4-rasmdagi asbob foizda darajalangan shartli shkalaga ega.

PC rusumli shishali rotametr korpus 5 ga ustunlar 4 yordamida o'rnatilgan konussimon naycha 2 dan iborat. Naycha ichida pastdan yuqoriga oqadigan suyuqlik yoki gaz oqimi ta'sirida vertikal harakat qiluvchi qalqovich 1 bor. Asbobning shkalasi 3bevosita naycha ustida (chizish yo'li bilan) darajalanadi. hisoblashlar qalqovichning ustki gorizontall tekisligi bo'yicha olib boriladi.

Konussimon shisha naychali rotametrlar suv bo'yicha 0,025—4 m³/soat va havo bo'yicha 0,4—40 m³/soat, o'lchash chegarasi: 0,6 MPa (6 kg-k/sm²) gacha ish bosimiga mo'ljallangan. Asbobning asosiy xatoligi yuqori va pastki o'lchash chegaralarining farqi 1,6% ni tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan suyuqlik, bug' va gazlar (havo)ning miqdori va sarfini o'lchash usullari shu bilan tavsiflanadiki, ularda sezgir elementi bevosita o'lchanayotgan muhit bilan bog'liq, ya'ni ular mexanik va kimyoviy shikastlanadi, bu esa oqibatda oqim bosimining kamayishiga olib keladi. O'lchanayotgan muhitning sezgir elementga uzluksiz ta'siri vaqt o'tib borishi bilan o'lchash ko'rsatkichi aniqligiga salbiy ta'sir etadi va natijada ularning ishonchli ishlashi hamda asbobning ishlash muddati kamayadi.

Kimyoviy jihatdan agressiv (kislotalar, ishqorlar), abrazivli (kulshlak materiallarning pulpasi) va boshqa suyuqliklarning sarfini o'lchash uchun, yuqoridagi asbob va usullar (ularda sarf o'lchagich qismlariga materiallar tegib turishiga ruxsat etilgan) qo'l kelmaydi. Shuning uchun o'lchanayotgan moddalar bilan aloqasi yo'q, sezgir elementi bilan tegib turmaydigan qator usul va asboblar mavjud va ular agressiv muhitlarda qo'llanilishi mumkin. Bu kabi asboblarga elektromagnitli va ultratovushli asboblarni kiritish mumkin.



5-rasm. Dinamik bosimni o'lchash sxemasi

Tezlik bosim kuchi orqali o'lchanadigan sarf o'lchagich: Bu sarf o'lchagichlarda sarfni oqimning dinamik bosimi (P_v) bo'yicha aniqlanadi (5-rasm).

3. Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'diklab o'tish lozimki, rotametrlar bosim farqi o'zgaruvchan sarf o'lchagichlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: rotametrlarning shkalalari teng bo'linmali bo'lib, uncha katta bo'lmagan sarflarni o'lchashga imkon beradi; bosimning yo'qolishi kichik va u sarf kattaligiga bog'liq emas, rotametrlarning o'lchash ko'lami katta.

Rotometr kamchiliklari: quvurli o'tkazgichlarning faqat vertikal uchastkalarida o'rnatilishi, ko'rsatuvlarni masofaga uzatish, ularni yozib olish qiyinligi va yuqori bosim va haroratlarga ega muhitlar sarfini o'lchash uchun yaroqsizligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xabibulloqli, E. A., & Abdugarimovna, M. U. (2021). Assessment of metrological reliability of measurements using the method of producing functions. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 520-528.
2. Mihoilovich, E. K., & Xabibulloqli, E. A. (2021). Selection of methods of acceptance inspection in production. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1350-1355.
3. Masharipov, S. H., Mamatkulov, M. N., & Erkaboyev, A. X. (2020). Metrological Accuracy and Estimation of Extended Uncertainty of Pressure Gauge in Real Conditions of Explaution International journal of advanced research in science. *Engineering and technology (IJARSET)*, 7(5), 13801-5.
4. Erkaboyev, A. X. O. G. L., & Isroilova, N. F. Q. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1066-1072.

SUG'URTA FAOLIYATINING SHAFFOFLIGI VA OCHIQLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY USTUVOR YO'NALISHLARI

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash masalasi o'rganilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek potensial sug'urtalanuvchilarning sug'urta faoliyati to'g'risida xabardorligini oshirish maqsadida bir qator muammolar va kamchiliklar o'rganilib, tahlil qilingan va ularga bir qancha yechimlar va takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: shaffoflik va ochiqlik, IAIS, sug'urta savodxonligi, potensial sug'urtalanuvchilar, sug'urta mahsuloti iste'molchilari, sug'urta kompaniyalari.

Аннотация. В данной научной статье исследуется вопрос обеспечения прозрачности и открытости деятельности страховых компаний. В целях повышения осведомленности юридических и физических лиц, а также потенциальных страхователей о страховой деятельности был изучен и проанализирован ряд проблем и недостатков, а также предложен ряд решений и предложений.

Ключевые слова: прозрачность и открытость, IAIS, страховая грамотность, потенциальные страхователи, потребители страховых продуктов, страховые компании.

Abstract. This scientific article explores the issue of ensuring transparency and openness of the activities of insurance companies. In order to increase awareness of the insurance activities of legal entities and individuals, as well as potential insurers, a number of problems and shortcomings were studied, analyzed and presented with several solutions and proposals.

Key words: transparency and openness, IAIS, insurance literacy, potential insurers, consumers of insurance products, insurance companies

Sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash bugungi kunda jahon sug'urta bozori, jumladan, O'zbekiston sug'urta faoliyatining assosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aslida, har qanday soha uchun shaffoflik va ochiqlik har bir davrda adolat va rivojlanishning asosiy sharti bo'lib kelgan. Shuningdek, sug'urta faoliyatining jamiyatdagi nufuzi va obro'si sug'urta mahsulotlarining aholi uchun shaffofligi va ochiqligiga bevosita bog'liq.

IAIS tomonidan qabul qilingan "Sug'urtaning asosiy prinsiplari"ning 2018-yildagi yangi tahririda har bir mamlakatning sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlariga sug'urta kompaniyalaridan o'z faoliyatiga oid ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlashni talab etish tavsiya etilgan [1].

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda sug'urta faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarorida sug'urta bozori shaffofligi va ochiqligini ta'minlash milliy sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan [2]. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etildi va uning vazifalari qatoriga sug'urta bozorining ishlashi, uning holati va sug'urta bozori professional ishtirokchilari faoliyati sohasidagi statistik va moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam e'lon qilish yo'li orqali ta'minlash kiritildi.

Sug'urta faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash masalasi, faqatgina sug'urta sohasidagi xorijiy va mamlakatimiz olimlarining emas, balki xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning ham e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi Parlamenti va Kengashining 2009-yil 25-noyabrdagi "Sug'urta va qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishni tashkil etish va amalga oshirish to'g'risida (Solvency II)"gi 2009/138/EC-son direktivasida keng jamoatchilikni sug'urta va qayta sug'urtalovchi kompaniyalar faoliyati bilan yaqindan tanishtirib borish, sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug'urta faoliyatiga oid ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash zarurligi ko'rsatilgan. Mazkur Direktivaning 3-bo'limi "Axborotlarni ommaviy oshkor qilish" deb nomlangan bo'lib, uning 51-moddasida Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar har yili o'z hududlaridagi sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalaridan ularning to'lov qobiliyati va moliyaviy holati haqidagi ma'lumot va hisobotlarni ommaviy oshkor etishlarini talab qilishlari zarurligi ta'kidlangan [3].

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashda ham bir qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, Daniel Schwarcz tartibga soluvchi maxsus organning qo'llab-quvvatlashi natijasida sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffof va ochiqligini ta'minlash sug'urta bozorining holatini sezilarli darajada yaxshi tomonga o'zgartirishi mumkin, deb hisoblaydi [4]. Uning fikricha, ba'zi hollarda sug'urta faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash amaldagi sug'urtaga oid normative-huquqiy hujjatlarga qaraganda ham sug'urta mahsuloti iste'molchilarining huquqlarini himoya qilinishi jihatidan foydali bo'lishi mumkin.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Soliqlar va sug'urta" kafedrasida iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) Q.M.Qo'ldoshev sug'urta faoliyatining mamlakatimiz uchun o'zaro sug'urta jamiyatlarini tashkil etish metodologiyasi va huquqiy asoslari, ushbu jamiyatlarda sug'urta ishini tashkil etish va amalga oshirish yo'nalishlari kabi masalalarni o'rgangan, biroq sug'urta faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga oid masalalar tadqiq etilmagan [5].

Respublikamizda umumiy holatda sug'urta faoliyatining ochiqligi va shaffofligi yetarli darajada ta'minlanmagani quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- potensial sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urtaga ehtiyoji bor insonlarning sug'urta kompaniyalari faoliyati va ular tomonidan taklif etilayotgan sug'urta mahsulotlari to'g'risidagi xabardorligi yetarli darajada yuqori emas;

- shaharda yashovchi aholiga nisbatan chekka hududlar aholisining sug'urta savodxonligi talabgajavob bermaydi, ayrim sug'urta kompaniyalarining veb-saytlarida potensial sug'urtalanuvchilar uchun yetarli ma'lumotlar mavjud emas;

- sug'urta kompaniyalarining rasmiy veb-saytlarida har bitta sug'urta mahsuloti yuzasidan sug'urta qoidalari to'liq aks ettirilmagan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagilar taklif etildi:

- aholida sug'urta savodxonligini oshirish maqsadida sug'urtaning mazmunini sodda va tushunarli tarzda yoritib beruvchi ommabop qo'llanma hamda sug'urta mahsulotining ochiqligini ta'minlash bo'yicha standart talablar ishlab chiqish;

- sug'urta kompaniyalarining veb-saytlarida har bir sug'urta mahsuloti bo'yicha sug'urta qoidalarini shakllantirish, sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv natijalarini tarmoqni tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organning rasmiy veb-saytida doimiy tarzda e'lon qilish amaliyotini tashkil etish;

- sug'urta kompaniyalarining rasmiy veb-saytlarida majburiy aks ettirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan normative hujjat ishlab chiqish.

Izlanish natijalari sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash aholida sug'urta savodxonligini oshishida, sug'urtaning iqtisodiy tarmoqlar va xalq orasiga kirib borishining kuchayishida va sug'urta mahsuloti iste'molchilari tomonidan sug'urta mahsulotlarini tanlash imkoniyati yuksalishida muhim omil hisoblanishini namoyon qildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlaganda, sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarni amalga oshirish natijasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek potensial sug'urtalanuvchilarning sug'urta faoliyati to'g'risida xabardorligi oshadi, sug'urta mahsulotlari sifati va narxini taqqoslash uchun yuridik va jismoniy shaxslarga yetarli shart-sharoitlar yaratiladi hamda sug'urta faoliyati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish samaradorligi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Insurance Core Principles, updated November 2018. International Association of Insurance Supervisors. <https://www.iaisweb.org/page/supervisory-material/insurance-core-principles-and-comframe/file/87203/all-icps-adopted-in-november-2018>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/4459802>.
3. Directive 2009/1388/EC of the European Parliament and the Council of 25 November 2009 on the Taking-up and Pursuit of the business of Insurance

-
- and Reinsurance (Solvency II) (recast) (Text with EEA relevance) (OJ L 335, 17.12.2009, p.1) p.48. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=celex%3A32009L0138>.
4. Daniel Schwarcz. Transparently Opaque: Understanding the Lack of Transparency in Insurance Consumer Protection. Scholarship Repository University of Minnesota Law School 61 UCLA L. REV. 394 (2014). P.416. https://scholarship.law.umn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1582&context=faculty_articles.
 5. Qo'ldoshev Q.M. "O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish" mavzusida 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha i.f.d (DCs) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. – 75 b.

SUG'URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH VA UNI O'ZBEKISTONGA JORIY ETISH

Olmosova Munisa Sherxon qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatga ega davlat organi tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish yo'llari tahlil qilinib, o'rganib chiqilgan. Shuningdek, bir qancha muammolar va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun yechimlar taklif qilingan.

Tayanch so'zlar: sug'urta faoliyati, EIOPA, OECD, sug'urta mukofoti, Maslahat Kengashi.

Аннотация. В данной научной статье проанализирован и изучен зарубежный опыт регулирования специально уполномоченным государственным органом, регулирующим и контролирующим страховую деятельность, и пути его применения в Узбекистане. Также был выявлен ряд проблем и недостатков и предложены решения для их устранения.

Ключевые слова: страховая деятельность, EIOPA, ОЭСР, страховая премия, Консультативный совет.

Abstract. This scientific article analyzes and examines the foreign experience of regulation and ways of its use in Uzbekistan by a state body with special powers regulating and controlling insurance activities. Several problems and shortcomings have also been identified and solutions have been proposed to address them.

Key words: insurance activities, EIOPA, OECD, insurance premium, Advisory Board

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha so'nggi yillarda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qaroriga asosan sug'urta sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini hamda ushbu sohadagi eng yaxshi jahon tajribalarini izchil joriy etish mamlakat sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, mazkur qarorda milliy sug'urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini, shu jumladan milliy sug'urta bozorini va xalqaro va xorijiy sug'urta bozorlari bilan integratsiyalash orqali oshirish vazifalarining qo'yilganligi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribani izchil va chuqur o'rganish, uning eng so'nggi yutuqlarini O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish va tartibga solish jarayonida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Sug'urta faoliyati iqtisodiy faoliyatining boshqa turlaridan tubdan farq qiladi. Buni shu bilan izohlash mumkin, sug'urta kompaniyasi dastlab sug'urta mahsulotini sotganligi uchun sug'urta mukofoti tarzida xizmat haqi oladi. Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davr ichida sug'urta hodisasi sodir bo'lgandagina sug'urtalovchi zimmasiga olgan majburiyatni, ya'ni "va'da"ni bajaradi. Sug'urta kompaniyalarining mazkur xususiyati ularning to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishini va har qanday holatda sug'urta mahsuloti iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi[2]. Shuni diqqatga sazovorki, sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimi davlatlarning tuzilishi, iqtisodiy siyosati va boshqa omillardan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi. Masalan, AQSHda azaldan sug'urta faoliyatini tartibga solish federal darajada emas, balki shtatlar darajasida amalga oshirilgan. Yevropa Ittifoqida esa sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, bir tomondan Ittifoq doirasida, ikkinchi tomondan, unga a'zo davlatlarning vakolatli idoralari zimmalariga yuklatilgan. Yevropa ittifoqi doirasida EIOPA tashkil etilgan bo'lib, u Yevropa Komissiyasining mustaqil maslahat organi hisoblanadi[3]. Uning asosiy vazifasi YI doirasida sug'urta faoliyatini tartibga solishga oid qonunlar va qarorlar loyihalarini tayyorlash, a'zo davlatlar bilan kelishgan holda ushbu hujjatlarni YI Parlamenti va Kengashiga taqdim etishdan iborat.

Hozirgi kunda jahonda sug'urta faoliyatini tartibga solish borasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunga misol tariqasida butun dunyoda globalizatsiya jarayonlarining tez sur'atlar bilan kengayishi va bu holat, o'z navbatida davlatlarning sug'urta faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini xalqaro talab va standartlarga muvofiqlashtirish, sug'urta sohasida mavjud muammolarni birgalikda hal qilish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Globalizatsiya jarayonlarining sug'urta faoliyatiga ta'siri to'g'risida Ye.Jegalova o'z tadqiqot ishida globalizatsiya jarayoni alohida davlatlarning jahon moliya resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochishi barobarida yangi texnologiyalarni joriy etish hisobiga moliyaviy barqarorligini oshirishlariga katta imkoniyat yaratishini qayd etgan [4].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlari sug'urta kompaniyalarining turlari sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlariga ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Ularning fikrlariga ko'ra, sug'urta kompaniyalarining hajmi va murakkabligi tartibga soluvchi organ faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ko'proq, tegishli davlat organida ishlaydigan xodimlar soni va budjetiga ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta bozorini tartibga solishning xalqaro tajribasini o'rganish haqida so'z borganda, avvalo, AQSH sug'urta bozori, aksariyat ko'rsatkichlar bo'yicha dunyo miqyosida yetakchi mavqega egaligi bilan ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otadi. Swiss

Re Institute xalqaro tadqiqot markazining ma'lumotlariga ko'rsa, 2019-yil yakunlari bo'yicha AQSH sug'urta kompaniyalari jami 2460,1 mlrd AQSH dollari miqdorida sug'urta mukofotlari to'plashga erishgan [5]. AQSH sug'urta faoliyatini tartibga solish tizimi boshqa davlatlarning sug'urta faoliyatini tartibga solish tizimidan keskin ajralib turadi. AQSHda sug'urta faoliyati rasman shtatlar doirasida tartibga solinsada, shu bilan birga federal darajada tashkil etilgan turli tashkilot va assotsiatsiyalar mavjud.

Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy modeli Buyuk Britaniya va Germaniyada shakllangan desak, xato bo'lmaydi. Buyuk Britaniya sug'urta bozori dunyoda eng rivojlangan bozorlar toifasiga mansub bo'lib, sug'urta kompaniyalarining aksariyati xorijiy mamlakatlarda o'z filiallari va vakolatxonalariga ega. Sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha Yaponiya tajribasi ham diqqatga sazovor. Chunki, Yaponiya sug'urta sektori dunyoda AQSH, Yevropa davlatlari bilan raqobatlashish salohiyatiga ega.

Sug'urta faoliyatini tartibga solishning xalqaro tajribasini o'rganish va tahlil etishga oid tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish va takliflarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya kabi sug'urta sektori yuqori darajada rivojlangan davlatlarning sug'urta sohasini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha tajribasini o'rganish tartibga solish bilan bog'liq ba'zi jihatlarni O'zbekiston sug'urta sektorini tartibga solishda qo'llash mumkin, degan xulosa chiqarishga asos bo'ldi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining Sug'urta nazorati xalqaro assotsiatsiyasi bilan hamkorligini yanada kuchaytirish lozim. Hamkorlik yo'nalishlari mamlakatimizda sug'urta faoliyatini tartibga solish jarayonida xalqaro tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, uslubiy ko'rsatmalar va boshqa hujjatlaridan samarali foydalanish, shuningdek kadrlar salohiyatini oshirish ishlarini qamrab olishi lozim.

Sug'urta faoliyatini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil qilish natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, milliy sug'urta bozorining raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida mamlakatimizning sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organi huzurida Maslahat Kengashi tashkil etilmagan. Shuni hisobga olgan holda sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qilish davlat organi huzurida Sug'urta faoliyatini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha Maslahat Kengashini tashkil etish tavsiya etiladi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori. <https://www.lex.uz/docs.4459802>.

2. Shennayev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2013. – 130-b.
3. At the heart of insurance and pensions supervision in Europe. <https://www.eiopa.europa.eu/>.
4. Жегалова Е. Развитие регулирования и надзора на страховом рынке в условиях глобализации: зарубежный и российский опыт. // М.: -журнал “Экономические науки”. -№10 (131). -2015.-с.113.
5. World insurance: riding out the 2020 pandemic storm. Swiss Re Sigma No 4 /2020. <https://www.swissre.com/dam/jcr>.

SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN PLATFORMALARNING TIZIMLI TAHLILI

Y.X.Sharifov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali, "Telekommunikatsiya injineri" kafedra assistant
yashin.sharifov@gmail.com

Annotatsiya. Sun'iy intellektga asoslangan platformalar tizimli tahlilidan mavzusida hozirda sun'iy intellekt ilovalari va platformalari eng yaxshilari kam uchraydi eng ilova platformalar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan

Kalit so'zlari: SI platforms- Sun'iy intellektga asoslangan platformalar, SI- Sun'iy intellekt, Machine learning (ML)- Mashinani o'rganish. Data preprocessing- Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash. Model training va evaluation- Model o'qitish va baholash. Model deployment- Modelni joylashtirish, Monitoring va maintenance- Xizmatni kuzatish

Annotation. A systematic review of AI-based platforms provides information on the best, rarest, and most popular AI applications and platforms currently available.

Keywords: AI platforms- Platforms based on artificial intelligence, AI- Artificial intelligence, Machine learning (ML)- Machine learning. Data preprocessing. Model training and evaluation- Model training and evaluation. Model deployment- Model deployment, Monitoring and maintenance- Service monitoring.

Аннотация. Систематический обзор платформ на основе ИИ предоставляет информацию о лучших, самых редких и самых популярных приложениях и платформах ИИ, доступных в настоящее время.

Ключевые слова: ИИ -платформы — платформы на основе искусственного интеллекта, ИИ-Искусственный интеллект, Машинное обучение (ML)- Машинное обучение. Предварительная обработка данных. Обучение и оценка моделей. Обучение и оценка моделей. Развертывание модели - Развертывание модели, Мониторинг и обслуживание - Мониторинг обслуживания.

Sun'iy intellektga asoslangan platformalar (SI platforms), sun'iy intellekt (SI) ilovalarini yaratish va ishga tushirish uchun o'zaro aloqador vositalarni o'z ichiga olgan tizimlardir. Bu platformalar, SI ilovalarini yaratish uchun kerak bo'lgan muhim funksiyalarni taqdim etadi.

SI platformalari, quyidagi muhim funksiyalarni taqdim etadi:

- Ma'lumotlar bazasi: SI platformalari, kerakli ma'lumotlarni saqlash va boshqarish uchun ma'lumotlar bazasini taqdim etadi. Bu, SI ilovalari uchun ma'lumotlarni saqlash va uni qayta ishlash uchun kerakli funksiyalarni taqdim etadi.

- Data preprocessing: SI platformalari, ma'lumotlar ishlovchi funksiyalarni taqdim etadi. Bu funksiyalar, ma'lumotlarni o'rganish uchun kerakli formatga o'tkazish, ma'lumotlarni tozalash, va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun kerakli boshqa operatsiyalarni bajarishni ta'minlaydi.

- Machine learning (ML) algoritmlari: SI platformalari, ML algoritmlarini taqdim etadi. Bu, data mining, data analysis, pattern recognition, va boshqa ML funksiyalarni o'z ichiga olgan tizimlar uchun kerakli algoritmlarni taqdim etadi.

- Model training va evaluation: SI platformalari, modelni tayyorlash va baholash funksiyalarini taqdim etadi. Bu, modelni tayyorlash uchun kerakli algoritmlarni bajarish, modelni baholash uchun kerakli metricalarni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

- Model deployment: SI platformalari, modelni ishga tushirish va uni integratsiyalashni taqdim etadi. Bu, modelni ishga tushirish uchun kerakli vositalarni taqdim etadi, shuningdek, modelni boshqa ilovalar bilan integratsiyalashga yordam beradi.

- Monitoring va maintenance: SI platformalari, modelni monitoring qilish va uni yaxshilash uchun kerakli vositalarni taqdim etadi. Bu, modelning ishlashini kuzatish, xatoliklarni aniqlash va o'z-o'zini to'g'rilash uchun kerakli monitoring va maintenance funksiyalarini taqdim etadi.

- Mashhur SI platformalari quyidagilardir: Google Cloud AI Platform, Amazon SageMaker, Microsoft Azure Machine Learning, IBM Watson, TensorFlow, PyTorch, va boshqalar.[1]

SI platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalar yaratish va ishga tushirishni oddiy va samarali qilishga yordam beradi. Bu platformalar, shuningdek, biznes tizimlarida va boshqa sohalarda SI ilovalarini integratsiyalashni ham osonlashtiradi.

TensorFlow va PyTorch, sun'iy intellektga asoslangan platformalar orasida mashhur va ko'p ishlatiladigan platformalardir.

TensorFlow, Google tomonidan ishlab chiqilgan va sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish uchun foydalaniladigan eng mashhur platformalardan biridir. TensorFlow, ko'p platformalarda va tizimlarda ishlatiladi, masalan, Android va iOS mobil ilovalari, qidiruv tizimlari, va TensorFlow.js orqali veb ilovalarida ham ishlatiladi.

TensorFlow, ko'p xil tashqi tizimlar va yordamlovlar bilan integratsiyalashga imkon beradi, shuningdek, Apache Spark va Apache Flink kabi keng tarqalgan tizimlar bilan yaxshi integratsiyaga ega. TensorFlow, ko'p xil ML algoritmlarini, masalan, bir guruh neyron tarmoqlari (convolutional neural networks) (CNN), takrorlanuvchi neyron tarmoqlari (recurrent neural networks) (RNN), va qo'shimcha algoritmlarni taqdim etadi.

PyTorch esa, Facebook tomonidan ishlab chiqilgan va sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish uchun ham ko'p ishlatiladigan platformalardan biridir. PyTorch, TensorFlow platformasiga nisbatan osonroq va o'rganish uchun

yaxshi qo'llaniladi. PyTorch, ko'p xil ML algoritmlarini, masalan, CNN, RNN, va qo'shimcha algoritmlarni ham taqdim etadi.

Barcha kamchiliklarga qaramay, TensorFlow va PyTorch, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalardir. Bu platformalar, ko'p xil ML algoritmlarini, tashqi tizimlar va yordamlovlar bilan integratsiyaga imkon beradi va sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishni oddiy va samarali qilishga yordam beradi.[2]

TensorFlow va PyTorch platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalar olsa-da, ular orasida bir nechta farqlar mavjud:

1. Modelning yaratilishi: TensorFlow-da model yaratish uchun graflar va tensorlar ishlatiladi, shuningdek, TensorFlow-da modelni ishga tushirish uchun sessiyalar ham ishlatiladi. PyTorch esa, model yaratish uchun imperativ stil ishlatiladi va PyTorch-da modelni ishga tushirish uchun autograd mexanizmi ishlatiladi.

2. O'rganish jarayoni: TensorFlow-da o'rganish jarayoni boshqa jarayonlarga nisbatan bir necha qadamda bajariladi va TensorFlow-da o'rganish jarayonini o'zgartirish qiyinchilikka olib keladi. PyTorch-da o'rganish jarayoni esa, TensorFlow-ga nisbatan osonroq va yaxshi o'rganiladi.[3.6]

3. Integratsiya: PyTorch, TensorFlow-ga nisbatan integratsiya huquqiga ega bo'lib, boshqa Python kutubxonalariga oson integratsiya qilishga imkon beradi. TensorFlow-da integratsiya ham yaxshi, lekin PyTorch-ga nisbatan qiyinchilikka olib keladi.

4. Xatoliklarni aniqlash: TensorFlow-da xatoliklarni aniqlash uchun TensorBoard kabi vositalar yordam beradi. PyTorch-da xatoliklarni aniqlash esa, TensorFlow-ga nisbatan qiyinchilikka olib keladi.

5. Eslatma: TensorFlow-da modelni saqlash va qayta ishlash uchun protobuf va SavedModel formatlaridan foydalaniladi. PyTorch-da modelni saqlash va qayta ishlash uchun pickle formatidan foydalaniladi.

Barcha kamchiliklarga qaramay, TensorFlow va PyTorch platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalardir. Ular orasidagi farqlar, foydalanuvchilar uchun modelning yaratilishi, o'rganish jarayoni, integratsiya, xatoliklarni aniqlash va yodgorlik kabi muhim xususiyatlarni taqdim etishda ahamiyat kasb etadi.[8]

TensorFlow va PyTorch platformalari haqida ko'proq o'rganishni boshlash uchun quyidagi resurslardan foydalanishingiz mumkin:

1. TensorFlow va PyTorch rasmiy veb-saytlari: TensorFlow va PyTorch platformalarining rasmiy veb-saytlari, ularning qanday ishlashini va qanday foydalanishni o'rganish uchun yaxshi manbalarni taqdim etadi. Bu manbalar, hujjatlashtirishlar, qo'llanma kitoblar va ko'p boshqa foydali materiallarga ega.

2. TensorFlow va PyTorch kurslari: TensorFlow va PyTorch platformalariga oid ko'p kurslar mavjud, har biri o'rganishga mo'ljallangan turli darajada. Bu

kurslardan foydalanish orqali, TensorFlow va PyTorch platformalarining asosiy funksiyalari va ularning qanday ishlashini o'rganishingiz mumkin.

3.TensorFlow va PyTorch kutubxonalari: TensorFlow va PyTorch kutubxonalari, ko'p xil ML algoritmlarini va ko'p tashqi tizimlar va yordamlovlar bilan integratsiyalashga imkon beradi. Bu kutubxonalardan foydalanish orqali, TensorFlow va PyTorch platformalarining kengaytirilgan funksiyalarini o'rganishingiz mumkin.

4.TensorFlow va PyTorch jamlanmalar: TensorFlow va PyTorch jamlanmalari, o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun ko'plab qo'llanmalar va misollar taqdim etadi. Bu jamlanmalardan foydalanish orqali, TensorFlow va PyTorch platformalari bilan ishlashni osonlashtirishingiz mumkin.[9.10]

5.Online topshirishlar: TensorFlow va PyTorch platformalarini o'rganish uchun online topshirishlar, misollar va mashqlar mavjud. Bu topshirishlar orqali, TensorFlow va PyTorch platformalarining yaratilishi, o'rganish jarayoni, integratsiya, xatoliklarni aniqlash va yodgorlik kabi muhim xususiyatlari haqida ko'proq tushuntirish va o'rganishingiz mumkin.

Barcha kamchiliklarga qaramay, TensorFlow va PyTorch platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalardir. Quyidagi manbalar, TensorFlow va PyTorch platformalari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun foydali bo'lishi mumkin:

-TensorFlow rasmiy veb-sayti:<https://www.tensorflow.org/>

-PyTorch rasmiy veb-sayti:<https://pytorch.org/>

-TensorFlow kurslari:<https://www.tensorflow.org/resources/learn-ml>

-PyTorch kurslari:<https://pytorch.org/resources/>

-TensorFlow kutubxonalari:<https://www.tensorflow.org/resources/libraries-extensions>

-PyTorch kutubxonalari:<https://pytorch.org/ecosystem/>

-TensorFlow jamlanmalari: <https://github.com/tensorflow/examples>

-PyTorch jamlanmalari: <https://github.com/pytorch/examples>

TensorFlow va PyTorch platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalardir. Ular, ko'p xil ML algoritmlarini taqdim etadilar va ularni ishlatish oson bo'lishi uchun yaxshi hujjatlashtirish, kutubxonalarga, kurslarga va jamoatga ega.

TensorFlow va PyTorch-da sun'iy intellektga asoslangan ilovani yaratish uchun quyidagi umumiy qadamlar ko'rsatiladi:

1.Ma'lumotlarni saqlash va tayyorlash: Sun'iy intellektga asoslangan ilovani yaratish uchun, ma'lumotlar tayyorlanishi kerak. Bu ma'lumotlar, ma'lumotlar bazasidan yoki boshqa ko'plab manbalardan olinadi. Ushbu ma'lumotlar TensorFlow yoki PyTorch formatiga o'tkaziladi.

2.Model tayyorlash: TensorFlow va PyTorch-da model tayyorlash uchun imperativ va deklarativ usullar ishlatiladi. TensorFlow-da model tayyorlash uchun graflar va tensorlar ishlatiladi. PyTorch-da model tayyorlash imperativ usulda amalga oshiriladi.

3.Modelni o'rganish: TensorFlow va PyTorch-da modelni o'rganish uchun ko'p xil ML algoritmlaridan foydalaniladi. Bu algoritmlar, misol uchun convolutional neural networks (CNN) va recurrent neural networks (RNN) kabi algoritmlarni taqdim etadi.

4.Modelni sinash: Modelni sinash, yaratilgan modelning taxminiy natijalarni aniqlash uchun amalga oshiriladi. Bu natijalar, modelning yaxshiroq ishlashiga yordam beradi.

5.Modelni ishlatish: Modelni ishlatish, yaratilgan modelni yangi ma'lumotlar bilan ishlash uchun amalga oshiriladi. Bu jarayonda, model natijalari aniqlanadi va ma'lumotlar ustida taxminlar qilinadi.

TensorFlow va PyTorch platformalari, yaratilgan sun'iy intellektga asoslangan ilovani ishga tushirish uchun ko'p yordamchi funksiyalarni taqdim etadi. Bu funksiyalar, modelni saqlash, yuklash, qayta ishlash, tashqi tizimlar va yordamlovlar bilan integratsiya qilish kabi xususiyatlarni taqdim etadi. TensorFlow va PyTorch kutubxonalari, ko'p xil ML algoritmlarini va ko'p tashqi tizimlar va yordamlovlar bilan integratsiyalashga imkon beradi.

Barcha kamchiliklarga qaramay, TensorFlow va PyTorch platformalari, sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni yaratish va ishga tushirishda ko'p ishlatiladigan platformalardir. Quyidagi qadamlar, TensorFlow va PyTorch platformalarini ishlatish jarayonida odatda amalga oshiriladi:

1.Ma'lumotlarni tayyorlash: TensorFlow va PyTorch formatida.

2.Modelni tayyorlash: Imperativ va deklarativ usullar ishlatiladi.

3.Modelni o'rganish: Ko'p xil ML algoritmlaridan foydalaniladi.

4.Modelni sinash: Modelni sinash, yaratilgan modelning taxminiy natijalarni aniqlash uchun amalga oshiriladi.

5.Modelni ishlatish: Yaratilgan modelni yangi ma'lumotlar bilan ishlash uchun amalga oshiriladi.

TensorFlow va PyTorch-da modelni sinash uchun bir nechta usullar mavjud. Bu usullar, modelning yaxshiroq ishlashini aniqlash uchun foydalaniladi.

Quyidagi sinash usullari TensorFlow va PyTorch-da ishlatiladi:

1.Confusion matrix: (Chalkashlik matritsasi), modelning sinashida qo'llaniladigan eng ko'p ishlatiladigan usullardan biridir. Bu usul, modelning taxminiy natijalari va ma'lumotlarning haqiqiy natijalari orasidagi farqni aniqlash uchun ishlatiladi. Confusion matrix, yolg'on va haqiqiy natijalarni aniqlash uchun yaxshi yechimdir.

2.Precision, recall va F1-scorlar: (Aniqlik, eslab qolish va F1 balli) Bu usul, modelning sinashida ishlatiladigan boshqa muhim usullardan biridir. Bu usul, modelning qanday yaxshi yoki yomon ishladigini aniqlash uchun ishlatiladi. Precision, recall va F1-scorlar, modelning yolg'on va haqiqiy natijalarga qanday qarash kerakligini aniqlash uchun yaxshi yechimdir.

3.ROC va AUC: ROC va AUC (Area under the curve-Egri chiziq ostidagi maydon)usullari, modelning sinashida ishlatiladigan boshqa muhim usullardan biridir. Bu usul, modelning yaxshi yoki yomon ishlashini aniqlash uchun

ishlatiladi. ROC va AUC, modelning yolg'on va haqiqiy natijalarga qanday qarash kerakligini aniqlash uchun yaxshi yechimdir.

4. Cross-validation: (O'zaro tasdiqlash), modelning sinashida ishlatiladigan boshqa muhim usullardan biridir. Bu usul, modelni sinash qilish uchun ma'lumotlarni bir nechta qismlarga ajratish va har bir qismni sinashga qo'llaniladi. Cross-validation, modelning yaxshi yoki yomon ishlashini aniqlash uchun yaxshi yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow" by Aurélien Géron
2. "Python Machine Learning" by Sebastian Raschka and Vahid Mirjalili
3. "Deep Learning" by Ian Goodfellow, Yoshua Bengio, and Aaron Courville
4. "Machine Learning: A Probabilistic Perspective" by Kevin P. Murphy
5. "Pattern Recognition and Machine Learning" by Christopher M. Bishop
6. "Reinforcement Learning: An Introduction" by Richard S. Sutton and Andrew G. Barto
7. "The Hundred-Page Machine Learning Book" by Andriy Burkov
8. "Data Mining: Practical Machine Learning Tools and Techniques" by Ian H. Witten, Eibe Frank, and Mark A. Hall
9. "Introduction to Machine Learning with Python" by Andreas C. Müller and Sarah Guido
10. "Machine Learning Yearning" by Andrew Ng

O'ZBEKISTONDAGI AGROTURIZM IMKONIYATLARI VA AGROTURIZM MARKAZLARI

Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor o'qtuvchisi.

Yusupbekova Iroda Jo'rabek qizi

Toshkent davlat agrar universiteti turizm yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston hududida turizm sohasining eng yosh yo'nalishlaridan biri agroturizmning mohiyati to'liq ochib berilgan hamda uning yurtimizdagi imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek maqolada yurtimizdagi agroturizm markazlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, agroturizm, Varganza, Anor festivali, turizm imkoniyatlari, aholi bandligi, agruturizm rivoji.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению сущности агротуризма, одного из молодых направлений туризма на территории Узбекистана, и его возможностей в нашей стране.

Ключевые слова: Туризм, агротуризм, Варганза, Гранатовые фестивали, возможности туризма, занятость населения, развитие агротуризма.

Abstract. This article fully reveals the essence of agrotourism, one of the youngest areas of the tourism industry in Uzbekistan, and is dedicated to studying its opportunities in our country. The article also provides information about agrotourism centers in our country.

Key words: Tourism, agritourism, Varganza, Pomegranate festival, tourism opportunities, population employment, development of agritourism.

Bugungi kunda mamlakatimiz kundan kunga rivojlanib, rivojlangan mamlakatlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Albatta bu yurtboshimizning samarali va oqilona siyosatlarining mahsuli desak adashmaymiz. Bilamizki sport, san'at, ilm-fan bularning barchasi davlatni jahonga tez tanitadigan sohalardir. Hozirgi kunda turizm sohasi ham mana shunday sohalardan biridir. Mamlakatimiz turistik resurslarga boy hududda joylashgan. Va bundan tashqari respublikamizda turizmni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi shiddatli axborot texnologiyalari zamonida sokin tinch va albatta shahardan tashqaridagi turistik markazlarga talab oshmoqda. Bunday turizm turlariga agroturizmni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Agroturizm Bu ikki atamadan hosil bo'lgan tushuncha: agro va turizm. Agro, bu e'tibor beradigan tarkibiy element maydon (siz ekinlarni o'stirishingiz va hayvonlar parvarishlab ko'paytirishingiz mumkin bo'lgan rivojlanmagan er). Turizm boshqa tomondan, bu dam olish uchun o'tkaziladigan sayohatlar bilan bog'liq tushuncha. Ushbu fikrlar asosida biz agroturizmning nima ekanligini anglashimiz mumkin ya'ni Agroturizm bu qishloq sharoitida sodir bo'ladigan

sayyohlik faoliyati. Shuning uchun biz agroturizmni qishloq turizmi dep ham ataymiz. Odatda agroturizm ikki ming kishidan ko'p bo'lgan qishloqlarda yoki qishloqlar, mahalliy shaharlar tarkibiga kirmaydigan hududlarda tashkil etiladi.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ta'rifiga ko'ra, "Ekologik turizm yoki agroturizm — bu tabiiy muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish, tabiiy hududlarga zarar yetkazmasdan o'rganish va tabiatning noyob diqqatga sazovor joylaridan bahramand bo'lish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga yondashuv. u atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadi, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini faollashtiradi va ularning ushbu faoliyatdan foyda olishlarini ta'minlaydi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan agroturizmni rivojlantirish ustida ishlar olib borilmoqda. Va bu sohadagi ishlarni yo'lga qo'yish bo'yicha dastlabki qadam sifatida 2018 yil uchun davlat dasturining 104-punkti - Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalar ijrosi maqsadida 4 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Agroturizmni rivojlantirish dasturi" tasdiqlangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 13-avgustda qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5781-son Farmonida keltirilgan masalalar turizm salohiyatini oshirish borasida qilinayotgan islohotlar natijasidir. Unga ko'ra turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida "2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida **turizm sohasini rivojlantirish** konsepsiyasi" ishlab chiqildi. „Mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish to'g'risida“gi 2019-yil 18-iyuldagi 549-sonli qarorda, 2020-yil 10-iyuldagi 433-sonli qarorda, 2022-yil 15-yanvardagi prezident farmonida turizm, madaniyat, madaniy meros yo'nalishlarida infratuzilmani jadal rivojlantirish, obyektlardan samarali foydalanish, aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish vazifalari ustuvor vazifa qilib qo'yilgan.

O'zbekistonda 2021-yilning ikkinchi choragidan boshlab turizm sohasi asta-sekin tiklana boshladi va 2022-yil birinchi chorak ko'rsatkichlari 2021-yilning shu davr ko'rsatkichlariga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. 2022-yilda yurtimizga kelgan xorijiy sayyohlar soni 609,59 ming kishini tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich 2021-yilning xuddi shu davriga (2021-yilda —238,86 ming kishi) nisbatan 55,2 foizlik o'sishni ko'rsatmoqda. Sayyohlarning asosiy qismi, ya'ni 88 foizi o'tgan to'qqiz oy davomida O'zbekistonga qarindosh-urug'lari va do'stlari bilan ko'rishish maqsadida tashrif buyurgan. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilning boshiga nisbatan 2,7 barobarga oshgan. Shuni diqqatga sazovorki, dam olish va ko'ngilochar tadbirlarda qatnashish maqsadida O'zbekistonga kelganlar ulushi 66,4 foizga

keskin oshgan. Bunday toifadagi sayyohlar joriy yilning yanvar-mart oylarida 6,1 foizni tashkil etdi.

Hukumatning turizm industriyasini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari 1992-yilda O'zbek turizm milliy kompaniyasining tashkil etilishi, 1993-yildan mamlakatimiz —Xalqaro turizm tashkilotining a'zoligiga kirishida namoyon bo'ldi. Turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati, strategiyalarini muvofiqlashtirish hamda amalga oshirish vazifasi

Turizm va madaniy meros vazirligiga yuklatildi. Agroturizmni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy organ Qishloq xo'jaligi vazirligi bo'lib, Turizm va madaniy meros vazirligi esa uni targ'ib qilishda yordam bermoqda. Shuningdek respublikada agroturizmni rivojlantirish borasida AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning agrobiznesni rivojlantirish loyihasi Agrobiznesni rivojlantirish jamg'armasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

"Qovunlar shahri - Sirdaryo" ham o'zining keng agroturizm imkoniyatlariga ega hududlardan bittasi. Bu hudud asosan baliqchilik, meva-sabzavotchilik va bog'dorchiilik sohalari bilan mashhur. Bu yerda agroturizmni rivojlantirish maqsadida 2021-2022-yillarda qiymati 59.8 mlrdlik 10ta yirik loyihalar amalga oshirildi.

Shunday loyihalardan bir Sirdaryo viloyatida joylashgan bu gidroponika usulida qurilgan issiqxonadir. 10 gektardan ko'proq maydonni egallagan bu issiqxonada meva sabzavotlar chet eldan olib kelingan egzotik o'simliklar ham yetishtiriladi. Asosan issiqxonada chet eldan olib kelingan urug'larni va egzotik o'simliklarni xonakilashtirish bilan shugullaniladi. Bu yerdagi meva sabzavotlar nafaqat ichki bozorga balki chet davlatlariga ham eksport qilinadi.

Prezidentimiz qarorlari va farmonlarining ijrosini ta'minlash maqsadida qator agroturizm markazlari barpo etila boshlandi. Bulardan dastlabkisi Varganza qishlog'i.

Varganza — birinchi agroturizm qishlog'idir. Bu yerda O'zbekistonda birinchi marta 2019-yil "Anor" xalqaro agroturizm festivali o'tkazildi. Festivalda 23 mamlakat qatnashdi, qishloq esa agroturizm qishlog'i maqomiga ega bo'ldi. Bu hududda anor vodiysi joylashgan. Unda anor yetishtirish boshlangani haqida afsonalar mavjud. Bu yerlarda birinchi anorni Hazrati Bashir ota ekan bo'lib, undan yordam so'raganlarga anor ko'chatlarini tarqatgan va qayerga ekish kerakligini ko'rsatgan. Chol o'z hassasi bilan qishloqdan daryoga qadar masofada yerga chiziq tortgan va ariq qazishni aytgan. "Anor — bu kelajakdagi farovonligimizdir", — degandi o'shanda u.

„Festival ochilishiga bir necha kun qolganida tashkilotchilar qishloq markazida — bog'larning o'rtasida, tomoshalar uchun sahna quradilar, tapchanlar, mahalliy aholining xalq amaliy san'ati namunalari aks ettirilgan ko'rgazma stendlari hamda , albatta, hamma joyda pishgan anor tog'lari paydo bo'ldi. Bir holatda, bu mevalar piramida shaklida joylashtirilgan, boshqasida ular daraxt shoxlarida to'qilgan savatlarda namoyish etilgan, uchinchisida esa ular sahna dizaynining bir qismiga

aylangan. Bu yerda bir necha qishloq aholisi o'z ustalarini birdaniga mohirlik bilan anor kesishni namoyish qilishadi.

Tog' havosi, musaffo buloq suvi va, albatta, mehnatkash dehqonlar Varganza anorini ayniqsa mazali va taniqli qildi. Yurtdoshlarimiz bozorlardan bu tog' qishlog'idan anor sotib olishdan xursand. Bundan tashqari, Varganza anorlarining xilma-xilligi, shirindan-shakar mazasi bugungi kunda butun dunyoga ma'lum va mashhur.

Agroturizm yurtimizda turizm sohasidagi eng yosh yo'nalish hisoblanadi. Bu sohada aholining bandlik darajasi ham juda past. Ammo qishloq aholisi o'zini-o'zi band qilish sohasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan yana bir agroturistik resurslarga boy Toshkent viloyatining Ohangaron tumanini o'laylik. Ohangaron tumanidagi O'ljay qishlog'ida Sherovlar honadoni o'z uylarida agroturizm maskanini barpo etishgan. Ularning honadonidagi uy hayvonlariyu rango rang tovuqlar yovvoyi qushlar kishilar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Ayniqsa bu hayvonlarning ochiq maydonda parvarishlanishi odamni yanada qiziqtiradi. Bu yerga kelgan mehmonlarimiz hayvon va qushlarni ovqatlantirishi ularni parvarishlashi mumkin. Kelgan mehmonlarga qulay sharoit yaratish maqsadida uy mehmonxonalari ham qurilgan. Bu mehmonxonalarda qishloq ayollari bir-biridan chiroyli zado'zlik mahsulotlarini tikishadi. Bu ham keluvchi sayyohlarning qiziqishini orttiradi albatta. Bu yerdagi tovuqlar tustovuqlarning qimmatbaho patlari ham juda mashhur va haridorgir.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytolamanki, O'zbekistondagi shahar va qishloqlarning asosiy afzalligi, ular asliyilgini va o'ziga xosligini saqlab qolishgan. Shu bilan O'zbekiston ko'plab sayyohlar uchun jozibador. Albatta bu omillar Mamlakatimizda agroturizm sohasini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yaxshi yo'lga qo'yilgan, turli qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda o'ziga xos qishloq an'analari, diqqatga sazovor joylar, turistik xizmatlarni ko'rsatish salohiyatiga ega qishloqlarning mavjudligi agroturizmni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ishonamizki yaqin kelajakda bu soha ham tez suratlarda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 13-avgustda qabul qilingan —O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5781-son Farmoni.
2. McGehee N G, Kim K, Klunenber S, Bratsch T (2002). Agri-tourism in Virginia:
3. <http://link.springer.com>
4. <https://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/issue/view/26>

REKRUTMENT XIZMATLARINING IQTISODIY MAZMUNI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

S.Q.Bultakova
SamISI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada rekrutment xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyati aks ettirilgan. Shu bilan birga rekrutment xizmatlarini rivojlantirish borasida tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, rekruting, rekrutment, xususiy bandlik agentliklari, aholi bandligi.

Аннотация. В статье отражено экономическое содержание услуги по подбору персонала, ее роль и значение в экономике. При этом даются соответствующие выводы и рекомендации относительно развития службы подбора персонала.

Ключевые слова: экономика, рекрутинг, реkrutment, частные агентства занятости, государственная занятость.

Abstract. The article reflects the economic content of recruitment services, its role and importance in the economy. At the same time, appropriate conclusions and recommendations are given regarding the development of recruitment services.

Key words: economy, recruiting, recruitment, private employment agencies, public employment.

Kirish. Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, zamonaviy talablar asosida kasblarga tayyorlash tizimi va kasblar tarkibini takomillashtirish, munosib ish o'rinlarini tashkil qilish, bu o'rinlarga kadrlarni tanlab olish kabi yo'nalishlarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida ham "Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri – kadrlarni tanlash va ishga qabul qilishning ochiq tizimini yo'lga qo'yishdan iborat. Ushbu tizim asosida kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechib, ularning intellektual salohiyatini, ma'naviy fazilatlarini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimi joriy etiladi"¹ – deya ta'kidlab o'tilgan edi. Shu ma'noda kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish, boshqarish va salohiyatidan unumli foydalanish, xususiy bandlik agentliklari faoliyatini, rekrutment xizmatlarini yanada yaxshilash borasida ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Rekruting tushunchasi bir qator xorijiy manbalarda turlicha e'tirof etiladi. Jumladan "Ishga olish" so'zi fransuzcha, "rekrutyor"² so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'zma-so'z odamni ishga olish, pullik harbiy xizmatga yollash degan ma'noni anglatadi. Nemis tilida ushbu atamaning analogi – "rekrutierung" - yollash, ishga olish. Ushbu so'z ingliz tilida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

²В.Г Гак янги француз-русча луғати / К.А.Ганшин .- 9-чи эд., Рев.-М .: рус тили - Медиа, 2004. - 1195 б.

ham xuddi shunday ma'noga ega, unda vaqt o'tishi bilan eski ma'nolarga qo'shimcha ravishda, tashkilotda xodimlarni ishga qabul qilishni anglatadi.

Xorijiy iqtisodchi olim Edvin Filippo rekrutingni "Istiqbolli ishchilarni topish va ularni tashkilotda ishlash uchun rag'batlantirish jarayoni"³ deb ta'riflaydi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.Arabovning fikricha, rekrutment – ish beruvchi kompaniyalar buyurtmasi bo'yicha mustaqil tashkiliy tuzilma sifatida faoliyat yuritadigan personalni tanlash bo'yicha pullik xizmatlardir⁴.

Akademik Q.X.Abdurahmonov rekrutment xizmatlariga "foyda olish maqsadida ish beruvchi (qidiruvchi)lar uchun maqbul xodim (ish)ni topish bilan bog'liq xizmat ko'rsatish jarayonlaridan iborat tadbirkorlik faoliyatidir"⁵ – deya ta'rif bergan.

Aytib o'tish mumkinki, rekruting, rekrutment faoliyati kabi tushunchalarga xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan turlicha ta'riflar berib o'tilgan hamda ularning asosiy mazmun-mohiyati bir-biridan keskin farq qilmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Rekrutment xizmatlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'rnini va iqtisodiy mazmunini tadqiq qilishda kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bizga ma'lumki aholi bandligini ta'minlash iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarimizning bosh maqsadlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu boradagi asosiy chora-tadbir va dasturlar davlat tomonidan ishlab chiqiladi. Rekrutment xizmatlari esa nodavlat (xususiy) bandlik agentliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa mazkur ikki sektor faoliyatini muvofiqlashtirish, bu boradagi ishlarni to'g'ri tashkil qilishda ma'lum murakkabliklarni yuzaga chiqaradi. Mamlakatimizda "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonun⁶ 2018-yil 17-oktyabrda kuchga kirgan. Mazkur Qonunning maqsadi xususiy bandlik agentliklarining faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Qonunga muvofiq, xususiy bandlik agentliklari ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlash va ishga joylashish ish beruvchilarga kadrlar tanlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek, ishga joylashtirish sohasida axborot va maslahatlar beruvchi tijorat tashkiloti sifatida ishga joylashtirish, jumladan, xorijga ishga joylashish bo'yicha davlat buyurtmalari haqida ishtirokchilar, ishga joylashtirish sohasi bo'yicha xizmatlar taqdim qilinadi.

Xususiy va davlat ish bilan bandlik korxonalarini faoliyati bir-biridan farqlanadi. Davlatning ish bilan bandlik xizmatlari mamlakat va xalqaro mehnat bozorida umumiy holat monitoringini o'tkazish, aholining ishsiz qatlamlarini moddiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olsa, xususiy bandlik

³ Flippo E.B. Personnel Management (Mcgraw Hill Series in Management) /E.B. Flippo. – 6th edition. – Colombia: Mcgraw-Hill College, 1984. – 607 p.

⁴ N.Arabov. Mehnat bozori infratuzilmasi tarkiniy qismlari va ularning o'zaro samarali aloqadorligi. "Iqtisod va ta'lim" ilmiy jurnali. 2017. №1.

⁵ Q.Abdurahmonov, S.G'oyipnazarov. Rekrutment. O'quv qo'llanma. – T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2021. 304 b.

⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2018 y., 03/18/501/2056-son.

xizmatlarining rivojlanishi esa davlat ish bilan bandlik xizmati tomonidan tez o'zgaruvchan bozorda barcha arizalarni qondirish imkoni bo'lmagan sharoitda yuzaga keladi va mehnat bozorining alohida segmentida faoliyatini tashkil etadi.

Rekrutment xizmatlarini ko'rsatuvchi agentliklarning xizmat turlari va tartibi⁷

| Xizmatlar turlari | Xizmat ko'rsatish tartibi |
|--|---|
| Mamlakat hududida ish qidirayotgan shaxslar uchun ish tanlash | O'zbekiston Respublikasi hududida ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlash bo'yicha xizmatlar xususiy bandlik agentligi va ish qidirayotgan shaxs o'rtasida tuzilgan xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi |
| Ish beruvchi korxonalar uchun kadrlar tanlash | Ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash bo'yicha xizmatlar xususiy bandlik agentligi va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi |
| Xorijiy davlatlarda ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish | Xususiy bandlik agentliklarining O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi ishni qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlari ularda O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi ishni qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) mavjud bo'lgan taqdirda taqdim etiladi |
| Ishga joylashish sohasida maslahat va axborot xizmatlarini taqdim qilish | Ishga joylashtirish sohasidagi axborot va maslahat xizmatlarini xususiy bandlik agentliklari ishga joylashtirish sohasida axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ko'rsatadi |

Olib borilgan tadqiqotlar asosida rekrutment xizmatlarini ichki va tashqi rekrutment xizmatlariga ajratish mumkin.

Ichki rekrutment – bu tashkilot yoki korxonalarda kadrlarni boshqarish bo'limining alohida funksiyasi bo'lib, potensial nomzodlarni qidirish, saralash, tanlash va ularni yollash hamda adaptatsiya xizmatlarini o'z ichiga oladi. Bu xodimlarni qidirish jarayoni bo'lib, unda vakansiyalar tavsiyalar asosida, hech qanday rekruting tashkilotlari ko'magisiz amalga oshiriladi.


⁷ O'zbekiston Respublikasining "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonun asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tashqi rekrutment esa – bu bo‘sh lavozimlarni to‘ldirish uchun turli rekrutment korxonalari, kadrlar agentliklari va davlat bandlik agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi bo‘lib hisoblanadi. Rekruting agentliklari bugungi kunda ish beruvchilar kabi, real sektor kompaniyalari kabi ishonchli va jalb etuvchan hisoblanadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda respublikamizda jami 114 ta xususiy rekruting agentliklari reestrda kiritilgan bo‘lib, ularning 9 tasi xorijdan ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega. Shu bilan birga, O‘zbekiston tashqi mehnat bozorini ishchi kuchi bilan ta’minlovchi davlatlar qatoriga kirar ekan, o‘zining mehnat migrantlarini barqaror va yaxshi daromad keltiruvchi ish joyi bilan ta’minlash, ularning ijtimoiy va huquqiy himoyasini amalga oshirishda qator muammolar mavjudligini qayd etib o‘tish joiz.

Bugungi kunga qadar ko‘plab xususiy bandlik agentliklari tomonidan fuqarolarga moddiy zarar yetkazib kelinganligi, firibgarlik kabi holatlar bilan shug‘ullanganligi aniqlangan. Xususan, birgina bandlik agentligi tomonidan 2019-2020-yillarda 1080 nafardan ortiq jabrlanuvchiga 21 milliard 192 ming so‘mdan ziyod miqdorda moddiy zarar yetkazilganligi aniqlangan. Mazkur holat, amaldagi xususiy bandlik agentliklari faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda huquqiy bo‘shliqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Rekruting agentliklari faoliyati va xizmat turlari dinamikasi⁸



Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda Xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilganligi uchun to‘lov ish beruvchi tomonidan qoplanishi belgilangan. Masalan, Kanadaning “Bandlik standartlari to‘g‘risida”gi, Avstraliyaning “Ishga joylashtirish bo‘yicha agentliklar to‘g‘risida”gi, Chexiya Respublikasining “Bandlik to‘g‘risida”gi qonunlariga hamda Xalqaro mehnat tashkilotining 1997-yildagi “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Konvensiyasiga muvofiq xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilganligi uchun to‘lov ish beruvchi tomonidan qoplanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun zaxira qilib qo‘yiladigan

⁸ Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

mablag'lar AQSH, Kanada, Malayziya, Singapur va Qozog'iston kabi davlatlarda fuqarolarning mulkiy huquqlari himoyasini kafolatlash maqsadida yuqori miqdorda belgilangan.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda rekruting faoliyatini tartibga solish bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aholi bandligining yuqori darajasi har tomonlama iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib e'tirof etish lozimli, hududlarda rekruting agentliklari xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, rekruting agentliklarining ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlash va ishga joylashish, ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ishga joylashtirish sohasida axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlaridan yetarli darajada rivojlantirilmagan.

Zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi uchun yollash xizmatlarida ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash, ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlashda hududiy harakatchanlik, mintaqalar uchun kadrlarni tanlash bilan shug'ullanadigan agentliklarga mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amaliy va uslubiy yordam ko'rsatishning yetarli tashkil qilinishiga erishish lozim.

Rekruting agentliklari samarali faoliyatiga to'siq bo'layotgan omillar sifatida xususiy bandlik agentliklari milliy mehnat bozori uchun bandlik infratuzilmasining yangi yosh a'zosi ekanligini, aholining rekruting agentliklaridan foydalanish malakasi yetishmasligini, rekrutyorlarni maxsus o'qitish uchun oliy ta'lim muassasalarning mavjud emasligini, rekruting agentligi faoliyatini litsenziyalash uchun majburiy depozitning yuqoriligi, xizmat ko'rsatish narxining pastligini quyidagilarni keltirish mumkin.

Keltirilgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish shubhasiz, rekrutment xizmatlarini rivojlantirish va bu orqali aholi ish bilan bandligini oshirish, ular mehnatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. В.Г Гак янги француз-русча луғати / К.А.Ганшин .- 9-чи эд., Рев.-М .: рус тили - Медиа, 2004. - 1195 б.
2. Flippo E.B. Personnel Management (Mcgraw Hill Series in Management) /E.B. Flippo. – 6th edition. – Colombia: Mcgraw-Hill College, 1984. – 607 p.
3. N.Arabov. Mehnat bozori infratuzilmasi tarkiniy qismlari va ularning o'zaro samarali aloqadorligi. "Iqtisod va ta'lim" ilmiy jurnali. 2017. №1.
4. Q.Abdurahmonov, S.G'oyipnazarov. Rekrutment. O'quv qo'llanma. – T.: O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2021. 304 b.
5. B.Umurzoqov, G.Abdurahmanova, S.Xolmurodov. Korxonada kadrlar siyosati. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya". 2019, 200 b.

C# DA WEB KAMERA ORQALI QR KOD YASASH VA O'QISH TEXNOLOGIYASI

Tojiyev Alisher Hasan o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi
a_tojiyev@jbnuu.uz

Ulashev Asrorjon Nasriddinovich
O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali assistenti
ulashevasror8@gmail.com

Mannonov Sarabek Shuhrat o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi
Smannonov70@gmail.com

Annotatsiya. C# dasturlash tilida Web kamera yordamida QR kodni o'qish va QR kod yasash yordamida ma'lumotlarni aniqlashni tezlashtirish. Yaratilayotgan dasturlarni optimallashtirish va foydalanuvchiga qulayliklarni yaratish. Havola yordamida. QR kod orqali mahsulot yorlig'i, kommunal xizmatlar kvitansiyasi yoki veb-sayt sahifalarini tez va oson topishni ko'rib chiqamiz.

Аннотация. Ускорьте распознавание данных с помощью считывания QR-кода с веб-камеры и генерации QR-кода на языке программирования C#. Оптимизация создаваемых программ и создание удобства для пользователя. Используя ссылку. Попробуйте быстро и легко найти этикетку продукта, счет за коммунальные услуги или страницу веб-сайта с помощью QR-кода.

Annotation. Accelerate data recognition using webcam QR code reading and QR code generation in C# programming language. Optimizing the programs being created and creating convenience for the user. Using the link. Consider quickly and easily finding a product label, utility bill, or website page using a QR code.

Kalit so'zlar: Generatsiya, api, QR-kod, Aforage, Zxing, Secure Quick Response

Ключевые слова: генерация, API, QR-код, aforage, ZXing, Secure Quick Response

Key words: generation, api, QR code, Aforage, Zxing, Secure Quick Response


Bugungi kunga kelib ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalarida tub o'zgarishlar jarayoni har qachongidan ham jadallashgan. Kundan-kunga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizdagi roli oshib bormoqda. Bejizga XXI asr axborot texnologiyalari asri deb ta'rif berilmagan. Hayotimiz texnika bilan chambarchast bog'lanib bormoqda. C# dasturlash tilida web kamera yordamida QR kodni o'qiydigan va yasaydigan dastur tuzish, bu dastur yordamida sayt havolasi, komunal tolovlar cheki, ma'lumotlarni, mahsulot haqidagi ma'lumotlarni topishimiz mumkun bo'ladi[2].

QR kodlari iste'molchi reklamalarida keng tarqalgan. Odatda, smartfon QR kod skaneri sifatida ishlatiladi, kodni ko'rsatadi va uni qandaydir foydali shaklga aylantiradi (masalan, veb-sayt uchun standart Url, shu bilan foydalanuvchi univ vb-brauzerga kiritish zaruriyatini yo'qotadi). QR-kod reklama strategiyasining diqqat markaziga aylandi, chunki u URL-manzilni qo'lda kiritishdan ko'ra, brend veb-saytiga tezroq kirish imkonini beradi. Iste'molchi uchun qulaylikdan tashqari, bu imkoniyatning ahamiyati shundaki, u konversiya tezligini oshiradi.[3] Bu konversiya yo'li bo'ylab manfaatdor istiqbollarni yo'naltiradi ozgina kechikish yoki harakat bilan tomoshabinni darhol reklama beruvchining veb-saytiga olib keladi, holbuki uzoqroq va ko'proq maqsadli savdo maydonchasi tomoshabinning qiziqishini yo'qotishi mumkin.

Dastlab avtomobil ishlab chiqarishda ehtiyot qismlarni kuzatish uchun foydalanilgan bo'lsa-da, QR kodlari juda kengroq ilovalarda qo'llaniladi. Bularga tijorat kuzatuv, ko'ngilochar va transport chiptalari, mahsulot va sodiqlik marketingi va do'kon ichidagi mahsulotlarni markalash kiradi. Mobil ilova bo'lgan QR kod dekoderi yordamida kompaniyaning chegirmali va foizli chegirmalarini olish yoki kompaniya ma'lumotlarini, masalan, manzil va tegishli ma'lumotlarni Sariq sahifalarda ko'rish mumkin bo'lgan alfa-raqamli matn ma'lumotlari bilan birga saqlashni marketing misollari kiradi[7].

Manzillar va URL manzillarni saqlaydigan QR kodlari jurnallarda, belgilarda, avtobuslarda, tashrif qog'ozlarida yoki foydalanuvchilar haqida ma'lumot olishni xohlaydigan deyarli har qanday ob'ektda paydo bo'lishi mumkin. To'g'ri o'quvchi ilovasi bilan jihozlangan kamerali telefonga ega foydalanuvchilar matnni, aloqa ma'lumotlarini ko'rsatish, simsiz tarmoqqa ulanish yoki telefon brouzerida veb-sahifani ochish uchun QR kod tasvirini skanerlashi mumkin[8].

C# da QR kodni yaratishda Manager NuGet Packagedan Pm> Install-Package QRCode kutubxonasini yuklab olamiz. Bu kutubxona C#.NET tilida yozilgan oddiy kutubxona bo'lib, u bizga QR kodlarni yaratish imkonini beradi. Uning boshqa kutubxonalarga bog'liqligi yo'q va NyGet.Netda Freamwork va .NET Core PCL versiyasi sifatida mavjud[6]. Bu kutubxonadan foydalangan holda biz o'z QR kodimizni yaratishimiz, unga rang berishimiz va QR kod markaziga rasm yoki o'zimizning logatipimizni joylashtirishimiz mumkin bo'ladi. QR kodni yasaganimizda to'rtta xatolarni to'g'irlash tamoyillari mavjud bular:



3-Rasm

L darajasi(past) Ma'lumotlar baytlarining 7% qayta tiklanishi mumkin.

M darajasi(o'rta) Ma'lumotlar baytlarining 15% qayta tiklanishi mumkin.

Q darajasi(kvartil) Ma'lumotlar baytining 25% qayta tiklashi mumkin.

H darajasi(Yurori) Ma'lumotlar baytingin 30% qayta tiklashi mumkin.

Kattaroq QR belgilarida xabar bir nechta Reed-Solomon kod bloklariga bo'linadi. Blok o'lchami shunday tanlanadiki, har bir blokda 15 dan ortiq xatoni tuzatishga urinilmaydi. Bu dekodlash algoritmining murakkabligini cheklaydi. Keyin kod bloklari bir-biriga aralastiriladi, bu QR belgisiga mahalliyashtirilgan shikastlanish har qanday blokning sig'imini oshirib yuborish ehtimolini kamaytiradi[4]. Xatolarni tuzatish tufayli inson ko'ziga yanada o'qilishi yoki jozibador bo'lishi uchun bezakli badiiy QR kodlarini yaratish hamda QR kod blokiga ranglar, logotiplar va boshqa funksiyalarni kiritish mumkin. Bezaklar xato sifatida ko'riladi, lekin kodlar hali ham to'g'ri skanerlanadi. Bundan tashqari, asosiy matematik konstruksiyalarni manipulyatsiya qilish orqali xatolarni tuzatish imkoniyatlarini kamaytirmasdan badiiy QR kodlarini loyihalash mumkin. QR-koddagi xatolarni kamaytirish uchun tasvirni qayta ishlash algoritmlari ham qo'llaniladi[1].

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra kiritilgan ma'lumotlarimiz generatsiyalanadi. Bu generatsiyalangan kod obekt ko'rinishida bo'ladi biz uni foydalanuvchiga oson va tushinarli ko'rinishi uchun rasm holiga aylantiramiz va tayor bo'lgan kodni foydalanuvchiga taqdim etamiz(4-rasm).



4-Rasm.

Biz C# dasturlash tilida QR kod qanday yasalishi bilan tanishib chiqdik. Endi biz o'zimiz yaratgan QR kodni o'qishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun bizga NuGet Packagedan Aforage va Zxing kutubxonalarini kerak bo'ladi[5].

Aforage kutubxonasi bizga video qurilmalarni aniqlashda yordam beradi. Biz bu kutubxona yordamida mahalliy USB veb-kameralarni, videofayllarni va odatda IP-videokameralar tomonidan taqdim etiladigan video oqimlarini olishimiz mumkin.

Zxing kutubxonasi bizga web kameradan kelayotgan ma'lumotlarni dekodlashga yordam beradi. Bu kutubxonaning quyidagi hususiyatlari mavjud:

- Buyruq qatori uchun dekoder.
- Buyruq qator uchun kodlovchi.
- Windows Forms demosi (static tasvirlarni va kameradan dekodlash va kodlashni namoyish etadi).
- Windows xizmati demosi (static tasvirlarning dekodlanishini namoyish etadi).
- Windows Presentation Framework demosi (static tasvirlarning dekodlanishini namoyish etadi).
- Windows RT demosi (static tasvirlarning dekodlanishini namoyish etadi)

Biz bularning ichida Windows Forms demosi funksiyasidan foydalangan holda web kameradan kelayotgan ma'lumotlarni qayta ishlaymiz. QR kodni skaner qilganimiz va uni Zxing kutubxonasi funksiyalaridan foydalangan holda Qayta ishlab QR kodida qanday ma'lumot, Url-manz yoki ma'lumotni foydalanuvchiga taqdim etamiz[6].



5-Rasm.

4-rasmda “O‘zMu Jizzax filiali” deb QR kod yaratgan edik. 5-rasmda esa biz web kamerani tanlagan holda shu QR kodni o‘qidik va bu muvafaqiyatli amalga oshdi va bizning QR kodimizda “O‘zMu Jizzax filiali” deb yozilganligini o‘qib berdi.

QR kod bizning hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Birinchi bo‘lib Yaponiyada avtomobilsozlikda ishlatilgan bo‘lsa hozirgi kunda

butun jahonda ommalashib bormoqda. Qr kod yordamida biz uzundan uz n sayt manzilarini yoki cheklarni osongina QR kodni skaner qilish orqali osongina havolaga o'tishimiz mumkin bo'ladi. Nafaqat havolalarga o'tishni balki katta-katta marketlarda sotilayotgan mahsulotlar haqida ma'lumotlarni onlayn tarzda QR kodni skaner qilish orqali u haqida ma'lumotlarni olishni yo'lga qo'yishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Таджиев, А. (2022). Zamonaviy texnologiyalarni kutubxona faoliyatiga tadbiiq qilish. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 209–211. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5160>
2. Nasriddinovich, U. A. , & Nasriddinovich, U. A. (2023). Dasturlash tillarida axborotlashtirilgan pedagogik texnologiyalarini yaratish uslubiyati. journal of innovations in scientific and educational research, 2(16), 147-150.
3. Abdumo'minovich S. A. , Xolbutayevich T. O. , Mamasoliyevich J. D. To'ldirilgan reallik sun'iy intellekt bilan kelajak texnologiyasiga aylanmoqda //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 187-190.
4. Asfandiyorovich, F. N. (2022). Tarmoqlanuvchi algoritmlar mavzusini doir kompyuter imitasion modeli asosida takomillashtirish. Research And Education, 1(2), 273-278.
5. Qodirov, F. (2020). QR-kod texnologiyasi asosida elektron kutubxona tizimini dasturiy va apparat taminotini yaratish. Ахборот технологияларининг замонавий муаммолари ҳамда уларнинг ечимлари ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАҚОЛАЛАР to'plami.
6. Tojiyev, A. (2022). Takrorlanuvchi algoritmlarda takrorlanish jarayoni tahlili. Scienceweb academic papers collection.
7. Tepekule, B. , Yavuz, U. , & Pusane, A. E. (2013, April). On the use of modern coding techniques in QR applications. In 2013 21st Signal Processing and Communications Applications Conference (SIU) (pp. 1-4). IEEE.
8. KARAHAN, E. , & BİLİCİ, S. C. (2017). Use of QR Codes in Science Education: Science Teachers' Opinions and Suggestions. Necatibey Faculty of Education Electronic Journal of Science & Mathematics Education, 11(1).

BUXORO VILOYATIDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Kosimova Shaxzoda Mirsharipovna
Buxoro Davlat Universiteti,
Turizm (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi,
II bosqich magistri

Anotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida mahalliy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va bu borada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar taqdim etilgan. Buxoro viloyatida ichki turizmni yanada rivojlantirish maqsadida, turizm infratuzilma obyektlarini tashkil qilish, ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish, turizm salohiyatini targ'ib qilish va madaniy turizm tadbirlarini tashkil etish yo'nalishlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, turizm mahallasi, madaniy obyektlar, turizm tadbirlari, sayohat dasturi, mahalliy sayyohlar.

Аннотация. В статье представлены возможности развития местного туризма в Бухарской области и меры, реализуемые в Республике Узбекистан в связи с этим. В целях дальнейшего развития внутреннего туризма в Бухарской области обозначены направления по организации объектов туристической инфраструктуры, развитию паломнического туризма, разработке новых туристических маршрутов, популяризации туристического потенциала и организации культурно-туристических мероприятий.

Ключевые слова: внутренний туризм, туристическое соседство, объекты культуры, туристская деятельность, программа путешествия, местные туристы.

Annotation. The article presents the possibilities of development local tourism in the Bukhara region and the measures implemented in the Republic of Uzbekistan in this regard. In order to further develop domestic tourism in Bukhara region, directions for organizing tourism infrastructure facilities, development of pilgrimage tourism, development of new tourist routes, promotion of tourism potential and organization of cultural tourism events are indicated.

Key words: domestic tourism, tourism neighborhood, cultural objects, tourism activities, travel program, local tourists.

Mintaqamizda sayyohlik sohasini izchil rivojlantirish, turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan bir qator dastur va qarorlar tasdiqlangan.

2021-yil davomida viloyatimizga 2 mln 265 ming nafar sayyohlar tashrif buyurgan. Shulardan, mahalliy sayyohlar 2 mln 216 ming nafarni, xorijiy sayyohlar esa qariyb 49 ming nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2020-yilga

nisbatan ichki turizmga qariyb 9,3 baravarga, xorijiy sayyohlar soniga nisbatan 3,6 baravarga ortgani kuzatilgan.⁹

2021-yilning 21-22-yanvar kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy takomillashtirish bo'yicha belgilagan muhim vazifalar ijrosi yuzasidan ba'zi ishlar amalga oshirilgan bo'lib, 2022-yilda G'ijduvon tumanida "Qo'rg'on", "Turizm mahallasi", Vobkent tumanida "Shirin etnoturizm qishlog'i" va Ahmad Donish ko'chasida "Turizm ko'chasi"ni tashkil etish ishlari yakunlangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 184-bandiga muvofiq Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish yo'lga qo'yilgan.¹⁰ Bunga ko'ra, 2022 — 2026-yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini esa 600 mln AQSh dollariga yetkazish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Buxoro viloyatdagi 800 dan ortiq madaniy binolarni birma-bir restavratsiya qilish asosiy rejalar qatoridadir.

Yuqoridagi Farmonga ko'ra, 2022-2026-yillarda Buxoro viloyati hokimligi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Qurilish vazirligi bilan birgalikda «Turizm mahallasi», «Turizm ovuli», «Turizm qishloqlari»ning ichki yo'llari, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma obyektlarini ta'mirlash ishlarini «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga kiritiladi hamda uning doirasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.¹¹

Buxoro viloyatida ichki turizmni yanada rivojlantirish maqsadida (1-jadval), turizm infratuzilma obyektlarini tashkil qilish, ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish, turizm salohiyatini targ'ib qilish va madaniy turizm tadbirlarini tashkil etish mumkin.

⁹ "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Buxoro viloyati Kengashi raisi, Maxsud MUHAMMEDOV

Manba: <https://mt.uz/yangiliklar/392>

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-6212874#-6217692>

¹¹ <https://advice.uz/oz/document/2847>

1-jadval

Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari

| 2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli KO'RSATKICHLARI | | | | | | |
|---|---|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| T/r | Ko'rsatkichlar nomi | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. | 2025- y. | 2026- y. |
| 1. | Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi) | 2,4 | 2,9 | 3,4 | 3,8 | 4,1 |
| 2. | Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi) | 450,0 | 900,0 | 1,200 | 1,500 | 1 800 |
| 3. | Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll) | 121 | 200 | 230 | 270 | 300 |
| 4. | Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming) | 5,399 | 6,131 | 6,721 | 7,336 | 7,976 |
| 5. | Mehmonxonalar nomyer fondining bandlik darajasi | 45,0 | 51,0 | 61,0 | 71,0 | 93,0 |
| 6. | Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming) | 12,147 | 13,672 | 14,902 | 16,182 | 17,512 |
| 7. | Mehmonxonalar soni (dona) | 178 | 198 | 218 | 238 | 258 |
| 8. | Oilaviy mehmon uylari soni (dona) | 264 | 314 | 325 | 335 | 345 |
| 9. | Xostellar soni (dona) | 55 | 61 | 66 | 71 | 76 |
| 10. | Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |

Buxoro shahridagi sobiq “Shahriston” bozori hududida hunarmandlar markazini qurish, muqaddas qadamjolar — Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Orif ar-Ravgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va Chorbakr majmualarida keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayapti. Hududning turistik salohiyatini yanada kengroq targ'ib qilish maqsadida “Ipak va ziravorlar”, “Buxoro shahri kuni”, “Qovun sayli” va “Buxoro hunarmandlari” festivallari tashkil etilgan.

Viloyatimizda ichki turizmni yanada takomillashtirish, talabalarning qadimiy tarix, madaniyat va milliy qadriyatlarni chuqur o'rganishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi hamda ularning sayohat qilishga bo'lgan ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida, 2022-yilning yanvar oyida Buxoro viloyati hokimligi va Buxoro davlat universiteti hamkorligida “Buxoro bo'ylab sayohat qil! “ shiori ostida sayohat dasturi tashkil etildi. Ushbu sayohat dasturida Buxoro Davlat Universiteti Turizm fakultetining 150 nafardan ortiq talabarlari ko'ngillilar sifatida ishtirok etishgan.



1-rasm. “Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali”¹²

¹²<https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com>

2022-yilning 21-25-may kunlari Buxoro shahrida “Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivali” o‘tkazilgan (1-rasm). Ushbu festivalga barcha viloyatlardan 500 mingdan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Ularga qulaylik yaratish maqsadida viloyatlararo maxsus charter-reyslar, qo‘shimcha avtotransport va temiryo‘l qatnovlari yo‘lga qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyati Kengashi raisi,
Maxsud MUHAMMEDOV
2. **Manba:** <https://mt.uz/yangiliklar/392>
3. <https://lex.uz/docs/-6212874#-6217692>
4. <https://advice.uz/oz/document/2847>
5. <https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Fwww.youtube.com>

PHRASE DETECTIVES: A WEB-BASED COLLABORATIVE ANNOTATION WEB GAME

Ganijonov Muhammadali

Obidjonov Nuriddinbek

Jabaraliyev Kudratbek

Tursunboyev Obloberdi

Sharda University Uzbekistan

Bachelor of Technology

Computer science & Engineering

Key Words: Web-based games, distributed knowledge acquisition, object recogni - Category: H.5.2, I.2.5, I.2.6, I.2.7

Keywords: Web based games, Distributed knowledge acquisition object recognition, social networking, anaphoric annotation user interaction, XML semantic Web category: 11.5,2 1,2,5 1,2,6 1,27.

Abstract. Our project consists of a web game, and this project is developed for young children, and this game will attract children because it is an interesting game, and the advantage is that it is played without internet, and children from 6 to 12 years old can play. And there are several games in this web game software. For example, when we are driving a car, we are only concerned about driving the car like start/stop the car, accelerate/ break, etc.

Acknowledgements. I'm extremely grateful to (Something—my success, the completion of my dissertation) would not have been possible without the support and nurturing of (person). I cannot begin to express my thanks to, who Less strong, but very appreciative: I would like to extend my sincere thanks to .../ I must also thank

I would like to express my special thanks to our mentor Mr./Mrs. _____ for his/her time and efforts he/she provided throughout the year. Your useful advice and suggestions were really helpful to me during the project's completion. In this aspect, I am eternally grateful to you.

Introduction. Our team consist of 3 people. Ganijonov Mukhammadali, Obidjonov Nuriddinbek, Jabaraliyev Kuddarbek. Our goal in doing this project is to share offline games for young kids. The founder of this web project is Mukhammadali and Nuriddinbek, a member of our team. And we will contribute to the completion of the project until the end of the project. What is Web game ? We are going to create this web game from Html CSS and Java Script. That's where offline game mode comes in. Offline mode gives you the ability to continue playing your game even when you're not connected to the internet. This means that no matter what comes up, you can still finish the story or level or fight the boss. Why browser games are better? You can also play them from any device, whether

it's your computer, phone, or tablet. This is useful if you want to play on several devices (for example, at home on your laptop and on the go on your phone),

but don't want to pay to buy the additional app. How to download a offline game? To download a game, all you have to do is simply open the app, select your game of choice, click the x to access the details' section on the left of the game and tap the download symbol to save it for offline play. To access all of your downloaded games, go to the top-right menu and click on "Play Offline"

Background. Until now, developers have created various web games. For example Akinator. Sliter.io. League of Angels – Heaven's Fury. Dark Knight. Drakensang Online. DarkOrbit Reloaded. Lords of the Arena. Dragon Awaken. Our project is completely free to play without any costs. And also all games are easy to understand and play. And we plan to update this project in the near future. We think that the question of what news is of interest to everyone ? We will also develop additional games for older users within the project. Advantages of our project, the project includes several games, that is, there are more than 5 or 6 different games.

Document Management. User documentation. The User web game has the option of posting multiple sections of information from a zip file and can also post general in format. This website has sections like About, Creater, Services Certificate and so on.

A set of programs associated with the operation of a computer is called software. Software is the part of the computer system, which enables the user to interact with several physical hardware devices.

The minimum software requirement specifications for developing this project are as follows:

Operating System : Windows XP/ Linux.

Hardware Requirement Specification

Processor : Standard processor with a speed of 1.6 GHz

RAM : 256 MB RAM or more

Hard Disk : 20 GB or more

Monitor : Standard color monitor

Rules Engine

Mukhammadali: He is dealing with the document part of the web game and Also HTML CSS part.

Nuriddinbek : Working Java Script and Bootstrap part.

Kudratbek: He is dealing with Presentation.

Obloberdi : Financial helper.

Customer relationship and Management functionality

Customer relationship management (CRM) helps businesses to gain an insight into the behaviour of their customers and modify their business operations to ensure that customers are served in the best possible way. Customer relationship

management is a process in which a business or other organization administers its interactions with customers, typically using data analysis to study large amounts of information.

There are five key stages in the CRM cycle:


Reaching a potential customer.

Customer acquisition.



Conversion.

Customer retention.


Customer loyalty.



Workflow The main flow chart consists of three parts: flow chart, the user flow chart, the administrator flow chart.



*Main Data Definition of System The basic definition of student entity and attribute:
user*



Admin function



Purpose of the study.

The planned modernized system will help to troubleshoot the discomforts faced by the kids. Web game is guaranteed dependable. However the new outline method has data storage. There is also information about the founders of the web game. How long he has worked in the field and how many projects he has participated in during that time, etc. You won't waste your time playing these web games because the games are fun and great. And the game does not require any logins and passwords from you. And also the speed of the game is at a much higher level. This web game provides you with information about the founder of the project. This web game helps to prevent children from wasting time on the street because they are playing without leaving the house out of curiosity. In this web application, developers update their versions every 2-3 months and add new interesting games to the web application.

Body of Report

I do not have personal experiences to share. However, here is a sample report on a web game:

Title: Super Web game 2

The gameplay of Dinasour is simple and intuitive. The player controls Dinasour by tapping on the screen to make him jump, and holding the screen to make him jump higher. Dinasour runs automatically, The game consists of various worlds, each with multiple levels of increasing difficulty. Players can collect coins and power-ups along the way, which can help them progress through the game.

Graphics and Sound:

The graphics of dinasour are bright, colorful, and reminiscent of the classic Mario games. The levels are well-designed and feature various themes such as grasslands, deserts, and underwater environments. The sound effects and music are also classic, which adds to the nostalgic feel of the game.

Multiplayer:

Super Yaxtzee also features a multiplayer mode, where players can compete against each other in real-time races. The objective is to collect the most coins and reach the end of the level first. The multiplayer mode adds an extra layer of fun and competitiveness to the game.


Conclusion:

Overall, Yaxtzee is a fun and addictive web game that appeals to both casual and hardcore gamers. The simple gameplay, classic graphics, and multiplayer mode make it a must-try for anyone who loves platform games.


Unified Modeling language (UML)

1.CLASS DIAGRAM


Describes the structure of a system by showing the system's classes, their attributes, and the relationships among the classes.



2. Player Component diagram. Shows a complete or partial view of the structure of an example modeled system at a specific time




3 Enemy diagram. Shows a complete or partial view of the structure of an example modeled system at a specific time




GUI PLANS

Contains images showing roughly what the GUI will look like

Main menu:



High scores page



Conclusion and Future work

1. Web games have become more popular than ever, thanks to the rise of mobile devices and the increasing accessibility of the internet.
2. Web games offer a wide range of genres, from casual puzzle games to hardcore multiplayer games, which cater to different interests and preferences.
3. Web games can be played on various platforms and devices, including desktops, laptops, smartphones, and tablets, making them accessible to a broader audience.
4. Web games can be monetized through various business models, such as advertising, in-app purchases, and subscription-based services, which provide revenue streams for developers and publishers.

5. Web games have their challenges, such as competition, piracy, and technical issues, which require developers to innovate and adapt to stay relevant and successful.

As an AI language model, I do not have personal preferences or emotions. However, I can suggest some ideas for a future web game:

1. Augmented Reality Games: With the increasing popularity of AR technology, developing a web game that uses AR technology would be an exciting and innovative idea. Players can use their mobile devices to play the game and interact with the real world environment.

2. Blockchain-based Games: With the increasing popularity of blockchain technology, developing a web game that uses blockchain technology to store game data and assets would be an innovative idea. Players can own and trade game assets, making the game more immersive and interactive.

3. Cross-Platform Games: Developing a web game that can be played on multiple platforms, such as desktop, mobile, and tablet, would be a great idea. Players can play the game on any device and continue their progress from where they left off.

4. AI-Powered Games: Incorporating AI technology into web games can make the game more challenging and dynamic. AI can be used to adapt the game difficulty level based on the player's performance, making the game more engaging.

5. Virtual Reality Games: Developing a web game that uses VR technology would be an immersive and exciting experience for players. Players can use VR headsets to enter a virtual world and interact with the game environment.

Title page

Theme: Web game

CPU: P4/AMD 3GHz or Intel Core 2 Duo 2GHz+

CPU SPEED: Info.

RAM: 2 GB.

OS: Windows 7 or Windows 8.

FREE DISK SPACE: 40 GB.

SOUND CARD: Yes.

MONITOR MAXIMUM RESOLUTION: Monitor capable of displaying resolution of 1,280 x768 or higher.

DVD-ROM: Yes.

References

1. R.T. Beckwith, L. Brandt, B.M. Slator (2006). Electric Worlds in the Classroom: Teaching And Learning With Role-Based Computer Games. Teachers College Press. 182 p.
2. D.A. Bowman, C. North, J. Chen, N.F. Polys, P.S. Pyla, and U. Yilmaz (2003). [Information-Rich Virtual Environments: Theory, Tools, and Research Agenda](#). Proceedings of the ACM symposium on Virtual reality software and technology, Osaka, Japan, 2003.

3. J. S. Brown, A. Collins and P. Duguid 1989. Situated Cognition and the Culture of Learning. *Educational Researcher*, 18(1), 32-42.
4. [The Daedalus Project](#). Online MMORPG research publication.
5. T. M. Duffy, J. Lowyck and D. H. Jonassen, 1983. *Designing Environments for Constructive Learning*. New York: Springer-Verlag

XOTIN QIZLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB QUVVATLASH VA ULARNI BANDLIGINI TA'MINLASH

Otajonova Ozoda Baxodirovna

*Jizzax viloyati Paxtakor tumani Do'stlik MFY hokim yordamchisi
otajonova85@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur ishda xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash va ularni bandligini ta'minlash masalasidagi chora tadbirlar izohi va bu masalalar bo'yicha qator muammolar yechimlari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik faoliyati, bandlik, ayollar daftari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 21-sentabrdagi PQ-376-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, ularni kasbga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash hamda salomatligini mustahkamlash ishlarini mahallalarda tashkil etish maqsadida ko'pgina chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bugun yurtimizda ayollar bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bu borada duch kelayotgan muammolariga yechim topish davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishiga aylanib ulgurdi.

So'nggi yillarda ayollarni ijtimoiy himoyalash, bandligini ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib, bu borada mahalla darajasigacha yuritiladigan vertikal tizim yaratildi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 8-oktabrdagi jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi tashabbusi bilan xotin-qizlar masalalari bo'yicha yangi ish tizimi – har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "Ayollar daftari" joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ5020-sonli qaroriga binoan mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llabquvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq Respublika xotin-qizlar

jamoatchilik Kengashi tashkil etildi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

-xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llabquvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish;

- xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish; hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiyijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

- turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash;

-xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg'or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

-xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish choralarini ko'rish;

- hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, mahallalardagi "Ayollar maslahat kengashlari" faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash, ularga uslubiy-amaliy ko'maklashish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qarori. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2021-y., 07/21/5020/0191-son
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlik-xotin-qizlar-bandligini-ta-minlashning-asosiy-yo-nalishi>
3. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
4. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
5. <https://yuz.uz/uz/news/tadbirkorlik-faoliyatini-endi-boshlagan-xotin-qizlar-uchun-yarmarka-tashkil-etildi>

MOLIYAVIY FAROVONLIKKA ERISHISH SIRLARI

Qarshiyev Azizjon Iriskul o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy farovonlikka qanday erishish va yo'qsizlikka olib keladigan odatlarning oldini olish haqida so'z boradi.

Abstract. In this article mentioned how to reach good financial condition and to prevent habits which cause scarcity

Аннотация. В этой статье обсуждается, как достичь финансового благополучия и избежать привычек, ведущих к бедности.

Kalit so'zlar: Moliyaviy farovonlik, boylik, shaxsiy biznes, mahsulot, tadbirkorlik, yoqsizlik, shaxsiy byudjyet.

Key words: Good financial condition, wealth, own business, product, business, scarcity, self-budget

Ключевые слова: Финансовое благополучие, богатство, личный бизнес, продукт, предпринимательство, бедность, личный бюджет

Hozirgi kunda barcha insonlar har tomonlama kamchiliksiz yashashni, boy bo'lishni, o'zini shaxsiy biznesini ochishni istaydi. Lekin juda ko'pchilik insonlar "Bunday shohona hayotda yashash uchun boyning farzandi bo'lib tug'ilish kerak", – deb o'ylaydilar. Xo'sh, sizchi? Siz nima deb o'ylaysiz? Siz ham bunday shohona hayot kechirish uchun "Ajodlarimiz boy bo'lish kerak",- deb o'ylaysizmi? Nima uchun o'sha boy nasl sizdan boshlanmasligi kerak? Qachongacha o'rta hol oilalardek hayot kechirmoqchisiz?

Siz qaysi kasb egasi bo'lishingizdan qat'iy nazar: fermermi, haydovchimi, korxonasi ishchisimi, o'qituvchimi yoki sartaroshmi, sizda boy bo'lish imkoniyati bor. Siz "Menga endi kech bo'ldi, yoshlikda o'qimaganman" yoki "Bu mening qo'limdan kelmaydi",-deb o'ylashingiz mumkin. Oldin kim bo'lganingiz, qanday yashaganingiz buning hech qanday ahamiyati yo'q. Siz hozir kimsiz?

Agar siz o'tmishda qilgan yoki qilmagan ishlaringizni o'ylab afsuslanaversangiz yoki o'tirib olib kimdir sizning rivojlanishingizga, shaxsiy biznesingizni ochishingizga yordam berishini xayol surib, kutib yashasangiz, siz hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmasiz.

Yoki siz "Men 20, 30, 40 yoshga to'ldim. Endi foydasi yoq!", – deb o'ylashingiz mumkin. Nima qilibdi, 20 yosh bo'lsangiz? Nima qilibdi, 55 yoshdagi nafaqaxor bo'lsangiz? Hayotda shunday insonlar borki: 40 yoshida oila qurib, baxtli yashab ketgan; 45 yoshida o'z biznesini boshlab, 70 yoshida millioner bo'lgan; o'z kasbidan zerikib, 53 yoshida qayta o'qishga topshirib, talaba bo'lgan... Agar sanash kerak bo'ladigan bo'lsa, hayotimizda bunday insonlar juda ko'pdir. Shuni unutmangki, hech qachon o'zimizni aqlan yoki moliyaviy rivojlantirishga kech bo'lmaydi!

Muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, o'z hayotingizni tartibga keltirib oling. Qachon uyg'onasiz, qachon uxlaysiz, qachon, qayerda kim bilan uchrashasiz, hammasini oldindan rejalashtirib oling. Har kuni tongda 30 daqiqa

kitob mutolaa qiling, ruhlantiruvchi musiqalarni tinglang, kun tartibingizni rejalashtirib oling va rejalaringizni hech kim o'zgartirishiga aslo yo'l qo'mang. Har kuni oz, lekin doimiy ravishda o'z ustingizda ishlab boring. Agar siz har kuni kechagi kuningizga qaraganda 1% dan o'zgarsangiz; 1 yil davomida, dastlabki kuningizdagi holatingizga qaraganda qariyb 37 marta o'sgan bo'lasiz ($1.01^{365} \sim 37$; Atom odatlari, Jeyms Kleyr).

O'z ustingizda ishlashingiz borgan sari sizni muvaffaqiyat cho'qqisiga yetaklaydi va boy bo'lishingizga sabab bo'ladi, desak adashmagan bo'lamiz. O'zi boylik nima?!

Boylik! Boylik haqida shu qadar turlicha qarashlar mavjudki, ularning barchasini o'qib, inson bir to'xtamga kela olmay qoladi. Ba'zilar: "*Din boylikni qoralaydi, hadislarning aksariga qara, boylik zararli ekanligi aytilgan, shuning uchun iloji boricha odam kambag'al bo'lishi kerak!*" – degan so'zlarni aytishadi.

Boshqa toifa kishilardan esa: "*Islom tarixida juda ko'p badavlat kishilar o'tgan, jannatga tushishini tirikligidayoq eshitgan o'nta sahobiyning yarmidan ko'pi boy kishilar bo'lgan, nima uchun islom boylikni qoralar ekan, aksincha, musulmonlar qancha boy bo'lishsa, shuncha yaxshi*", - degan gaplarni eshitamiz.

Umuman, boylik masalasi juda nozik bo'lib, ulamolar bu masalada ham o'rtada turmoq afzal ekanini ta'kidlaganlar. Ya'ni islom boylikni qoralamaydi, musulmonlar ichida boy-badavlat kishilar ko'paygani yaxshi, deydi. Biroq boylik insonning oxirati uchun zararli bo'lsa, undan xatarliroq narsa yo'qligini bayon etadi. Boisi payg'ambarimiz duo qilganlarida faqirlikdan panoh so'rganlar va shu bilan birga oxiratda foyda bermaydigan boylikdan ham qochgan.

Agar siz hali o'zingizning shaxsiy biznesingizga ega bo'lmasangiz, nimadan boshlashni va nimalar qilish kerak ekanligini bilmasangiz, unda birinchi o'rinda yashayotgan hududingizda nimaga talab kuchli ekanligini, bozor iqtisodiyotini o'rganing va talabgor maxsulotlar ro'yxatini shakllantiring. Keyin bu ro'yxatdan joy olgan biznes turlarining oldindan bilganingizni yoki u haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lganingizni tanlang. Chunki bu muvaffaqiyatga erishishingizdagi asosiy omildir. Shaxsiy biznesingizni ochishga shoshilmang. Avvalambor, biznesdagi har bir qadamingizni rejalashtirib oling.

Albatta, har bir ishning o'ziga yarasha qiyinchiligi bo'lgani kabi, biznesda ham turli muommolarga duch kelishingiz mumkin. Bunday muommolar, asosan, sotuvchi va xaridor yoki hamkorlar o'rtasida yuzaga keladi. Ya'ni sizning mahsulotingizning narxi, sifati yoki hajmidan norozi bo'lib, sizga arz qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda, siz norozi tomon bilan suhbatda, ushbu qoidalarga rioya qilsangiz, ko'plab zararli hodisalarni oldini olgan bo'lasiz.

- fikrlaringizni rejalashtirib oling;
- so'zlaringizni faktlarga va dalillarga tayanib ifodalang;
- hissiyotingizni boshqaring;
- tinglovchining o'ziga xos xususiyatlari: yoshi, madaniyati, dunyo qarashi, jinsi va boshqa narsalarni hisobga olib muloqat qiling;

•-shaxsiy mulohazalar bayonida “menimcha”, “bizningcha”, “tushunishimizcha” kabi birliklardan foydalaning;

•-til me`yorlariga amal qiling.

•-suhbatdoshingizning so`zlarini diqqat bilan tinglang;

•-eng asosiysi, muloyimlik bilan muomala qiling;

Agar siz biror bir kasb egasi bo`lsangiz va sizni moliyaviy tomondan ta`minlovchingiz bo`lmasa, u holda biznesingiz sizga foyda keltirmaguncha o`z kasbingizdan voz kechmang.

Endi muvaffaqiyatga erishgan taniqli tadbirkorlardan biri xitoylik Jek Ma, biz, yoshlarga aytib o`tgan maslaxatlariga to`xtalsak.

“Mening yoshlarga maslahatim: yigirma besh yoshingizgacha ko`proq xato qiling, bu borada xavotir olmang. Eng muhimi, yiqilganingizda qayta tura oling. Sinib qolmang, o`rningizdan turing... Yosh paytingizda hayot berayotgan darslardan xulosa chiqaring. O`ttiz yoshdan qirq yoshgacha hamma ishlaringizda samarador bo`lishiga harakat qiling. Qirq yoshdan ellik yoshgacha siz o`zingiz ustasi bo`lgan ishlar bilan mashg`ul bo`ling, ellik-oltmish yosh orasida bo`lganda esa yoshlarni rag`batlantiring. Chunki yoshlar sizdan yaxshiroq ishlashi mumkin. Agar siz tadbirkor bo`lishni xohlasangiz, qiyinchilik va mag`lubiyatdan qo`rqmang. Hech qachon taslim bo`lmang.

Biz biznesimizni boshlaganimizda korxonaga 18 kishi egalik qilardik. Bu 18 kishini Xitoyning eng aqlli odamlari deb o`ylashadi. Ammo biz juda ham aqlli kishilar emasmiz. Shunchaki doimo oxirigacha bordik. Hammamiz oddiy maktablarni tugatganmiz. Barchamiz omadning eng oddiy qoidasiga amal qilamiz. Kelajakka ishonamiz, biz juda ham optimistmiz, xatolardan o`rganamiz, hech qachon taslim bo`lmaymiz.”¹³ⁱ

Yo`qsizlikni keltirib chiqaruvchi yetti asosiy sabab!

1. Shaxsiy byudjyet¹⁴.

Bir o`ylab ko`ring – pullaringizni nimalarga sarflayapsiz? Tinch muhitda o`tirib, so`nggi haftadagi barcha xarajatlaringizni birma-bir yozib chiqing. Endi fikrlang: xaridlar zarurat yuzasidan amalga oshirilganmi yoki yo`q? Ba'zi o`rinlarda iqtisod qilishning iloji bormidi? Aniq byudjyet rejasining yo`qligi– iqtisodiy farovonlik kemangizdagi asosiy “nosozlik”dir. Hech bo`lmaganda, bir oylik shaxsiy byudjyetni shakllantirishni o`rganmas ekansiz, moliyaviy jihatdan hech qanday yangilik kutmasangiz ham bo`ladi.

2. Iqtisodiy savodsizlik.

Yer aholisining aksariyati – iqtisodiy jihatdan savodsiz. Universitetni tugallagan odamlar asosiy iqtisodiy shart-sharoitlarni tushunmaslikni oddiy hol deb bilishadi. Buni faqat bir yo`l bilan to`g`irlash mumkin: atrofda nimalar ro`y berayotganiga qiziqish bildiring, qanday qilib neft narxi – valyuta kursiga, bu esa

¹³ [Xitoylik taniqli tadbirkor, “Alibaba” kompaniyasining asoschisi Jek Maning yoshlarga yo`llagan murojaatidan parcha]

¹⁴ Xalqaro ijtimoiy kuzatuv insitutlari rasmiy ma`lumoti.

sizning hayotingizga ta'sir qilishini tushunishga harakat qiling. Qarabsizki, pullar qayerdan kelishi haqida tasavvur hosil qilasiz.

3. Pul muhim emas!

Pul asosiysi emas, ular sizni baxtli qilmaydi. Bu so'zlarga qo'shilasizmi? Afsuski, ko'pchilik bu fikrga qo'shiladi. Albatta, asosiysi pul emas. O'z oilangizga qulay sharoitlar yaratish uchun pulingiz yo'q bo'lsa ham yaxshi... Asosiysi – siz birgasiz. Shunday emasmi? Ammo yodingizda bo'lsin, pullar farovon hayotning asosi bo'lishi mumkinligini anglab yetmaguningizga qadar boyishning uddasidan chiqqa olmaysiz.

4. Kimdir bundan-da og'ir ahvolda-ku!

Qashshoq reallikdan qochishning yana bir keng tarqalgan usuli. Tanishingizdan ko'proq pul topishingizni anglab yetishingiz sizni boyroq qilib qo'ymaydi. Shunchaki, yupatadi va bir joyda qotib qolishingizga sabab bo'ladi. Bu taxminan "*Hechqisi yo'q, Afrikada bolalar umuman och-nahor!*" – deb o'ylashdek gap.

5. Shunchaki dangasalik.

Soat to'qqizdan oltigacha ishlash qiyinmi? Aslida inson bundan-da ko'p ishlay oladi. O'zingiz o'ylab ko'ring, tushlikka qancha vaqt sarflaysiz? Necha soat aniq ishdagi faoliyatingizga yo'naltiriladi? Oradagi internetga sho'ng'ishni-ku, aytmasa ham bo'ladi. O'zingizni ayashni bas qiling. Yaxshi pul topmoqchimisiz, ko'proq ishlang.

6. Yovvoyi hayotga berilish.

Yengil hayotga, rohatga, kayf-safoga mukkasidan ketish qashshoqlikni chaqiradi. Inson yoshligida rohatdan qochish, mashaqqatdan qochmaslikni anglab yetmaguncha farovon hayotga erisha olmaydi.

7. Boshqalarni ayblash.

Bizning nochor yashashimizda boshqa odamlar aybdor emasligini aniq tushunib yetish – intellekt darajasiga ishora qiladi. Boshqalarga umid qilavermay, pul haqida o'zingiz qayg'uring

Eng asosiysi, oddiy yashashga harakat qiling. Agar siz oyiga o'rtacha 1000\$ maosh olsangiz, xuddi 800\$ maosh oladigan kishilardек yashashga harakat qiling. Kunlik, oylik rejalarinigizni o'sha 800\$ qarab tuzib chiqing va 200\$ ni murakkab foiz evaziga bankka qo'ying. Keyinchalik bankdan yig'ilgan mablag'izngizni yangi biznes ochishga yoki eski biznesingizni rivojlantirishga sarflang. Va eng asosiysi, pul bilan qanday muomala qilishni oila a'zolarinigizga puxta tushuntiring. Chunki birlik bo'lgan joyda o'sish bo'ladi. Agar siz tejamkor bo'lsangiz-u, ammo turmush o'rtog'ingiz va farzandlaringiz pul bilan muomala qila olmasa va katta xarajatlar qilsa, unda siz hech qachon moliyaviy faravonlika erisha olmaysiz.

Agar siz bu oddiy qoidalarni hayotingizga targ'ib qila olsangiz, hayotingizda misli ko'rilmagan o'zgarishlarni kuzatishingiz mumkin.

*“Siz birinchi qadamni tashlang, qanday yo`llar ochilishini keyin ko`rasiz”*¹⁵

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *“Do`stlar topish, o`zgalarda xush taassurot qoldirish va muvaffaqiyat qozonish sirlari”*, Deyl Karnegi
2. Stiv Jobs
3. *“Mening qo`shnim millioner”*. Uilyam.D. Danko va Tomas Dj.Stenli
4. *“Atom odatlari”*. Jeyms Kleyr

¹⁵ (Stiv Jobs)

HARBIY QUROL VA TEXNIKALARNI HAR XIL TRANSPORT VOSITALARI YORDAMIDA TRANSPORTIROVKA QILISH

TURSUNBEKOV Abror To'lg'inch

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Texnik ta'minot kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'linmalarni va moddiy texnik vositalarini har hil turdagi transport vositalarida tashish tartiblari va bajariladigan ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Transport vositalariga yuklash, qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlash, texnikalarni transportirovka qilish, jangovar qobiliyatini oshirish, yuqori, professional tayyorgarlikka ega bo'lish, armiyani shakllantirishni.

Аннотация. В данной статье представлена информация о порядке и работах, которые необходимо выполнить о перевозке деталей и материально-технического оборудование на различных видах транспортных средств и выполняемых работах.

Ключевые слова: Погрузка техникии предоставления оружия и снаряжения, перевозка оборудования, повышения боеспособности, иметь высокую профессиональную подготовку, формирование армии.

Mazkur maqolada bugungi kunda dunyodagi xalqaro ahvol, mintaqamizdagi notinch vaziyat armiyamiz oldiga yanada ma'suliyatli vazifalarni qo'ymoqda.

Bu qurolli kuchlarimizni tubdan isloh qilish, barcha zarur qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlangan, tezkor, jangovar qobiliyati yuqori, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan armiyani shakllantirishni taqozo etmoqda.

Barchamizga ma'lumki qurolli mojarolar olib borilayotgan hududlardagi qo'shinlarga qurol-aslaha, harbiy texnikalar va moddiy texnik vositalar zarur hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida texnik ta'minotni tashkil etish uchun transportirovka qilishni talab etadi.

Transportirovka [tashish]-bu qurol-aslaha va harbiy texnikalarni bir joydan boshqa joyga ko'chirishga aytiladi.

Transportirovka (tashish) – bu qurol - aslaha harbiy texnikalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishga aytiladi (1- rasm).

Transportirovka – qilish chog'ida qurollardan qisman foydalaniladi yoki umuman foydalanilmasligi mumkin.

Tashish – qurollar va texnikalarni tirkamalarda va boshqa transport vositasi avtomobil shataklarida, shuningdek temir yo'l, suv va aviatsiya transportlarida tashish amalga oshiriladi[2].



1-rasm. Texnikalarni xar xil transport vositasilar orqali tashish.

TRANSPORT VOSITALARIGA TURLI XIL YO'LLAR BILAN YUKLASH

Mashinalar transport vositalariga yuk ko'tarish kranlari, chig'irlar yordamida, ularning o'zlari yurib orilishi va tushirilishi mumkin [3].

mashina maydonchaga shunday joylashtiriladiki, zanjirlarning tayanch qismi yarim shatak ramasining gorizontal maydonida bo'lishi kerak;

tushiriluvchi trap ko'tarilib, mustahkamlangandan so'ng mashina dvigateli to'xtatiladi, ortga yurish uzatma ulanadi, yoqilg'i berishning qo'l dastagi nol holatiga qo'yiladi, «AKB» o'chiriladi, mashina tormozga qo'yiladi va u tirkachlanadi;

to'p (pushka) ohirgi quyi holatga tushiriladi. Negaki, u balandlik bo'yicha gabaritidan chiqmasligi va yarim shatak qismlariga tegmasligi kerak, minora tirkachlanadi, tuynuklar yopiladi (to'p (pushka) yurish holati bo'yicha "orqaga" yoki "oldinga" holatida bo'lishi mumkin);

agar mashina og'irligi 30 t dan oshadigan bo'lsa, u tortqichlar bilan yarim shatakga mahkamlanadi;


ortilayotgan mashinalarning o'rta tayanch g'altagi orasida orqa yoki oldiga siljishidan saqlanish maqsadida yog'och tirkagichlari qo'yiladi. Mashinada chig'iri (tortqich) bo'lganda uning simi yarim shatakning oldingi qismidagi halqaga (ilgakka) mahkamlanadi;

Mashinani samolyotga ortishga tayyorlashda yoqilg'i idishi (bak) 90%ga to'ldiriladi, uchish balandligi 5000 m va undan ortiq bo'lganda esa sovtutish tizimi

(sistemasi) past muzlab sovutuvchi suyuqlik bilan to'ldiriladi; g'ildirakli mashinalarning shinalari bosimi meyordan ortiq bo'lmasligi, g'ildiraklardagi bosim jumraklari va shinalarning jo'mraklari kabinasida havo bosimini tartibga solish (moslashtirish) tizimlari shinalarda yopiladi, boshqaruv jumragi dastasi holis (neytral) holatga quyiladi; yuruvchi qism kir (loy)lardan tozalanadi (bug'langan (iflos) yurish qismi bilan aerodromga kirish taqiqlanadi).

Samolyotlarga yuklar va jangovar texnikani ortish aviatsiya qismining qarorgoh (shtab) bilan kelishuviga asosan qism qarorgoxi (shtab) tomonidan tuzilgan samolyotlarning shaxsiy tarkibini qo'ndirish, qurolantirish jangovar texnikani ortish rejasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Samolyotga texnikani yetkazib berish aerodrom guruhlarining boshlig'i rahbarligi ostida amalga oshiriladi (2-rasm). Har bir bo'linma komandiri samolyotga o'z bo'linmasining texnikasini vaqtida yetkazib berish va uni samolyotga ortishiga shaxsan rahbarlik qiladi va javob beradi.



2- rasm. Texnikalarni xar xil usullar bilan yuklash.

HARBIY QISMNI TASHISHLARINI HISOBLASH UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLAR:

-shaxsiy tarkibning soni, bo'linmalarning texnikalarini miqdori, vazni va jussasi (gabariti):

harbiy eshelonni vagonlarga joylashishi meyorlari;

poyezdning harbiy eshelon bilan birga vazni va uzunligi;

-qo'shinlarni tashishda foydalaniladigan transport vositalarining tafsifi;

-harakat yo'nalishida yurib ketayotganda barcha toifadagi ta'minotga mo'ljallangan

-kuch va vositalarning mavjudligi;

-tashishlarning masofasi va o'ziga hosliklari;

TEMIR YO'L ORQALI TRANSPORTIROVKA QILISH

Qo'shinlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishida temir yo'l transporti bilan tashish katta ahamiyatga ega, unda ob-havo sharoitlari, kecha-kunduzligiga qaramay qo'shinlarni katta tezlik bilan ko'chishi, resurslarni saqlash, yoqilg'i moy mahsulotlarini tejash ta'minlanadi (3-pacm).

Temir yo'l orqali transportirovka qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Poyezdni va yuklash tushirish joylarini tayyorlash;

Tashiladigan qurollarni va harbiy texnikalarni tayyorlash;

Yuklash kuch va vositalari orqali yuklarni joylashtirish, mahkamlash va maskirovka qilish [5].



3-pacm. Temir yo'l orqali transportirovka qilish

Transport vositalarini (temir yo'l platformasiga, avtomobil yarim tirkamalariga, samolyotlarga) yuklashda xavfsizlik choralari

Yuklashni boshlashdan oldin rahbar temir yo'l platformasini (platforma maketini), yuklash maydonchasini (apparelni) mashina va platformani yuklashga tayyorgarligini, ayniqsa, burilish, tormozlash mexanizmlarini, boshqarish uzatmalarining rostlanganligiga alohida e'tibor berishi, boshmoqlar yoki shpalalar bilan temir yo'l platformasining ishonchli to'xtatilganligini tekshirishi kerak [1].

Mashinalarni nosoz yuklash maydonchalaridan nosoz, tashqi o'lchami kichik va ko'tarish qobiliyati yetarlicha bo'lmagan platformalarga yuklash taqiqlanadi.

Mashinalarni yuklash va tushirish xavfsiz uzoqlikda (kamida 5 m) turgan komandir (o'rgatuvchi)ning komandasi bo'yicha pastki uzatgichda bajarilishi kerak. Mashinada bitta o'rganuvchi bo'lishi kerak. Mexanik-haydovchi o'tiradigan joyning lyuk qopqoqi (BTR va BRDM haydovchisining ko'rish lyuk qopqoqi) ochiq va qotirilgan holda bo'lishi kerak.

Yuklash (tushirish) vaqtida platformada faqat mashinalarni yuklashni boshqarayotgan komandir (o'rgatuvchi) bo'lishi kerak. Yuklash bilanshug'ullanmayotgan o'rganuvchilar yuklash joyidan xavfsiz uzoqlikda (kamida 10 m) joylashadilar.

Tungi vaqtda yuklash maydonchasi (apparel) va temir yo'l platformasi (platformaning maketii) chetlari ko'rinadigan va yorug'lik mexanik-haydovchining ko'zini olmaydigan qilib yoritilishi kerak.

Temir yo'l platformasiga (platforma maketiga) yuklangan zanjirli mashina platformaning yon va to'g'ri tomonlari o'qiga nisbatan simmetrik holatda o'rnatilgan (ikkala gusenitsa bortlardan teng chiqib turishi), ishonchli qotirilgan bo'lishi kerak.

Temir yo'l platformasiga o'rnatilgan mashinada tormozlar to'la tortilgan, orqaga harakatlanish uzatmasi qo'shilgan, yoqilg'i baklari to'silgan, qo'lda yonilg'i berish uzatmasining dastagi nol holatiga qo'yilgan, bashnya bilan pushka safar holatida qotirilgan, batareyalar yondirg'ichlari o'chirilgan va lyuklar yopilgan bo'lishi kerak.

Mashinani avtomobil yarim tirkamasiga (yarim pritsepaga) yuklayotganda: shatakni va yarimtirkamani to'g'ri gorizontol maydonchaga o'rnatish, tormozlarga qo'yish, qildiraklar (oldingi qismida) ostiga esa qildirab ketishga qarshi tirgaklar qo'yish kerak;

bo'linma (mashina) komandiri yarimtirkama ramasing oldingi qismida turib yuklash ishlarini boshqarishi kerak, shatakchining chig'iri yordamida yuklashda esa – o'zi uchun xavfsiz va qulay joyda turishi kerak;

yarimtirkama platformasiga traplarga kirish yo'nalishini to'g'rilagandan keyin birinchi uzatmada to'xtovsiz va joyida charx urmasdan (probuksovka) chiqiladi. Yarimtirkama ramasing qiya qismida mashinani to'xtatish ta'qiqlanadi;

mashinani yarimtirkama platformasiga o'rnatgandan keyin uni tortqichlar bilan ramaning oldi va orqa qismidagi ilmoqlarga qotiriladi (tashish vaqtida mashinaning vertikal tebranishi natijasida tortqichlar uzilishini oldini olish uchun ularni bo'shashtirish nazarda tutilsin);

transportda tashish vaqtida mashina oldinga yoki orqaga jilmasligi uchun uni yuklab bo'lgach, zanjirining tagiga yog'och bruslar qo'yiladi.

Mashinalarni samolyotlarda (vertolyotlarda) tashish uchun yuklash va tushirishda qo'yidagi talablarga rioya qilinadi:

mashinalarni yuklashdan oldin ekipajlarning shaxsiy tarkibi (mexanik-haydovchilari) yuklash-tushirish ishlarini bajarish vaqtidagi o'z majburiyatlarini yaxshilab o'rganishi va bilishi kerak;

yukxonasiga mashinani yuklab va to'g'ri joylashganligini tekshirib bo'lganidan keyin shvartovka troslari va setkalar yordamida qotiriladi. Shvartovka uchayotganda, uchish davomida va qo' nayotganda mashini surilish ehtimolini to'la bartaraf etishi kerak;

vertolyotlardan tushirayotganda mashinalarni va odamlarni aylanadigan dum parragi ostiga borib qolishini bartaraf etuvchi xavfsizlik choralariga rioya qilish kerak.

Mashinalarni yuklashda quyidagilar taqiqlanadi:

ekipaj a'zolarini (desantni, mexanik-haydovchilarni) yukxonasining yon devorlari yaqinida bo'lishi, elektr chig'ir (lebyodka) yordamida yuklayotganda esa – yuk tuynugining orqasida bo'lishi; boshqarish mexanizmlari nosoz bo'lgan mashinalarni yukxonasiga o'zini yurgizib borib yuklash;

uchish apparatlaridan 5 metrdan yaqin masofada haydab o'tish, dvigateli ishlab turgan apparatlar yonidan ular uchadigan tomondan haydab o'tish boshqarish mexanizmlari nosoz bo'lgan mashinalarni yukxonasiga o'zini yurgizib borib yuklash (**4-rasm**);

uchish apparatlaridan 5 metrdan yaqin masofada haydab o'tish, dvigateli ishlab turgan apparatlar yonidan ular uchadigan tomondan haydab o'tish.

AVTOMOBIL TIRKAMALARDA TRANSPORTIROVKA QILISH



4-rasm. Avtomobil tirkamalarda transportirovka qilish

DENGIZ ORQALI TRANSPORTIROVKA QILISH

Dengiz transportlari - uzoq masofalarga nisbatan tejamkor narxlarda, katta hajmdagi og'ir harbiy texnika, qurol-yarog' va materiallarni yetkazish.

Qurollanish bo'yicha bugungi kunda yetakchi bo'lgan mamlakatlardan Amerika qo'shma shtatlarida harbiy bazalarni va qurol-aslahalarni tashishda 95 % dengiz transportirovkasidan foydalaniladi [4].

Tinchlik davrida harbiy yuk va shaxsiy tarkibni tashish bo'yicha keng miqyosli operatsiyalar paytida dengizda moddiy zaxiralarni saqlash tizimida omborlardan kemalar sifatida foydalanadi

Dengiz transportining afzalligi:

Strategik dengiz transporti vositalari bir yoki bir nechta havo kemalarining yuklarini (portlararo) tashishi mumkin (5-rasm).

Dengiz transportining kamchiligi:

Belgilangan joyga transportirovka qilish uchun uzoq vaqt talab etadi, katta shaklga ega kemalarga xizmat ko'rsatadigan portlardan foydalanish cheklangan.



5-rasm Dengiz orqali transportirovka qilish

HAVO YO'LLARIDA TRANSPORTIROVKA QILISH

Harbiy qurol va texnikalarni havo kemalarida transportirovka qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi (6-rasm).

Dastlabki tayyorlash bosqichida (shvartovka) bog'lovchi qurilma va jixozlarni tekshirish; texnika va qurollarning tugun va bo'g'inlarini, aylanadigan, tebranadigan qismlarini yurish holatida mahkamlash, tormoz tizimini tekshirish va yoqilg'i tizimining to'ldirilganligini (yoqilg'i to'kilmasligi uchun tizim yarim sig'imiga to'ldirilganligini) tekshirish.

So'ngi tayyorlash bosqichida to'planish yoki kutish rayonlarida avitransportirovka qilish uchun qurol va texnikalar tayyorlaniladi, iloji bo'lsa gabaritlari qisqartiriladi.

Havo orqali transportirovka qilishda uzoq masofalarga qisqa vaqtda yetkaziladi.

HAVO YO'LLARIDA TRANSPORTIROVKA QILISH



6-rasm. Havo yo'larida harbiy qurol va texnikalarni transportirovka qilish

Xulosa. Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda jahonda bo'lib o'tayotgan qurolli mojaralarda transportirovkaning barcha turidan samarali foydalanilmoqda;

Bu esa o'z navbatida mamlakatimizdagi mavjud qurol-aslaha, harbiy texnika va harbiy mol-mulklarni transportirovka qilishda texnik ta'minot bo'linmalari oldiga yuqori darajadagi texnik tayyorgarlik, amaliy ko'nikma va ma'suliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'R MV 2020 yil 15 dekabr kunidagi 768- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'R Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar va maxsus mashinalarni boshqarish kursi. – T. MV nashriyoti, 2020-70-76 b.
2. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining "qo'shinlarni temir yo'l va havo transporti vositasida tashish" bo'yicha qo'llanma. Toshkent -2012-20-51 b.
3. "Tank texnik ta'minoti" bo'yicha o'quv qo'llanma (O'R MV ning 56-sonli buyrug'i). 65-92b
4. Quruqlikdagi qo'shinlarning jangovar harakatlarini ta'minlash bo'yicha o'quv qo'llanma. 8 qismi. 169-192b
5. X.J. Turdibekov, "Jangovar mashinalarni haydash qoidalari". O'quv qo'llanma. Chirchiq -2011-66-77b

ISLOM BANKLARINI AKTIV OPERATSIYALARI

Begbutayev Gayratjon Asadillayevich
ATB "Hamkorbank" Toshkent MBXO

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz islomiy bank faoliyatining aktivlari va passivlarini boshqarish (ALM) tuzilishi va vositasini ko'rib chiqamiz. Islom bankida omonatchilar bank manfaatlariga sherik bo'lishadi, shuning uchun islom banki benefitsiarlarning, shu jumladan omonatchilarning manfaatlarini maksimal darajada oshiradi. sababli, islom bankchiligi va an'anaviy bank ishida ALM yondashuvlari o'rtasida o'xshashliklar mavjud. Birinchidan, bu o'xshashlik islom bankida buxgalteriya hisobining an'anaviy bankchilikka nisbatan farqidan kelib chiqadi. Ikkinchidan, sudxo'rlikning noqonuniyligi va u bilan bog'liq huquqshunoslik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, vaqt faqat o'z kapitalining (depozit kapitalining) rentabelligini oshirishda samarali omil emas; real iqtisodiyot sarmoyasi natijasida olingan daromad va zararni taqsimlash pul operatsiyalarining asosiy bazasi hisoblanadi. Bu ikki muhim omil islomiy ALMda muhim omillardir.

Kalit so'zlar: Islomiy bank, ALM, Kapitalning adekvatligi, Xatarlarni boshqarish.

Iqtisodiy nazariyalarning islom bankchiligi bilan mosligi va mos kelmasligi Islom iqtisodiyotining asosiy maqsadlaridan biri - bu iqtisodiyotda real qo'shilgan qiymatni yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirish. Boshqa tomondan, farovonlik iqtisodiyoti, biznesni boshqarishning yangi kontsepsiyalari, shuningdek, yangi xalqaro bank nazariyalari qiymat yaratish va aksiyadorlar manfaatlarini maksimal darajada oshirishdan iborat. Balki, islomiy bank faoliyatidagi sudxo'rlik qonunbuzarligining sabablaridan biri, pul bozorining real iqtisodiy sektorga ta'siridan kelib chiqishi mumkin, bu uzoq muddatli barqarorlik o'sishidan va pul bozori va boshqa bozorlardagi nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Demak, an'anaviy iqtisod va islom iqtisodiyoti nazariyalari o'rtasidagi moslikni kuzatish mumkin, garchi bu muvofiqlikni hamma nazariyalarda ham kuzatib bo'lmaydi. Islom iqtisodiyoti va an'anaviy bank ishi o'rtasidagi asosiy qarama-qarshilik sudxo'rlik qonunbuzarligi tamoyilidan kelib chiqadi va bitimlar bo'yicha sudxo'rlik va sudxo'rlik bo'lmagan mulohazalarga huquqshunoslarning intellektual chegirmalari ta'sir qiladi, islom iqtisodchilari va bu sohada fikrlar o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi muqarrar. Bidobod va Xarsini (2003)¹, sudxo'rlik ta'rifini sinchkovlik bilan o'rganib, fiqhning falsafiy printsiptan foydalanib, sudxo'rlikni sudxo'rlikdan farq qiladigan bitimlardan ajratish uchun ba'zi mezonlarni aniqlagan. Ko'rinib turibdiki, bu mezonlar sudxo'rlik ta'rifining oxirgi nuqtasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Kriteriyalar quyidagilar:

1. Qarz oluvchi qarz oluvchining iqtisodiy faoliyatidagi foyda/zararda qatnashishi kerak.
2. Foiz stavkasi oldindan belgilanmasligi va shartlanmasligi kerak.
3. Iste'mol krediti bo'yicha foiz - bu sudxo'rlik.

4. Xorijiy valyuta ayirboshlash (foizsiz) sudxo'rlik emas. Yuqoridagi mezonlarga asoslanib, sudxo'rlik bilan bog'liq bo'lmagan bank operatsiyalari, ALM texnikasini qo'llash, ushbu turdagi bank operatsiyalari samaradorligini va samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan muvofiqlashtirishni amalga oshirish uchun maxsus ALM yondashuvlarini talab qiladi. Oddiy bankchilik singari, islom bankchiligi ham aktsiyadorlarning aktivlarini ko'paytirishni nazarda tutadi, lekin islomiy banklarning haqiqiy manfaatdor tomonlari barcha benefitsiarlarni omonatchilar, investorlar va biznes sheriklari sifatida qabul qilishini inkor etadi.

Aktsiyadorlarning aktivlari aktsiyalarning bozor qiymati, to'lanadigan foyda miqdori, shuningdek qo'shilgan qiymat bilan o'lchanadi. Aktsiyaning bozor qiymati yoki yaratilgan qo'shilgan qiymatiga uchta omil ta'sir qiladi: aktsiyadorlarning moliyaviy qobiliyatidan kelib chiqadigan pul oqimi, pul oqimlarining vaqtini rejalashtirish va pul oqimlari xavfi. Islom bankida aktsiyadorlarning kapitalini ko'paytirish qiymat yaratishni maksimal darajada oshirish yo'li bilan ko'rib chiqiladi, lekin yuqorida aytib o'tilgan sudxo'rlikni taqiqlash tamoyillarini hisobga olish kerak. Ushbu maqolada iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA) indeksi qiymat yaratish mezonini sifatida ko'rib chiqiladi.

3. Islom banking aktiv va passiv tuzilmalari Islomiy bank faoliyatidagi aktivlar va majburiyatlar tuzilmasini bilish, aktivlar va majburiyatlar bandlarini islomiy shariat asosida ko'rib chiqishni talab qiladi. Islom bankida aktivlar va passivlarning umumiy tuzilishi

Aktivlar

• Pul mablag'lari va qisqa muddatli mablag'lar Banklar va boshqa moliya institutlariga depozitlar va joylashtirish

- Qisqa muddatli investitsiyalar (ya'ni, Sukuk)
- Yomon va shubhali moliyalashtirish uchun nafaqa
- Islomiy shartnomalar asosida moliyalashtirish va avanslar
- To'g'ridan -to'g'ri investitsiyalar
- Boshqa aktivlar
- Asosiy vositalar
- Asosiy vositalar, uskunalalar
- Boshqa moddiy aktivlar

Jami Aktivlar

- Yo'qotilgan aktivlar
- Xaridor majburiyatlari va kutilmagan holatlar

Masuliyatlar va aksiyalar qimmati

- Mijozlarning depozitlari
- Banklar va boshqa moliya institutlarining depozitlari va joylashtirishlari
- Hisob -kitob va akseptlar to'lanishi kerak
- Boshqa majburiyatlar
- Soliq va zakotni ta'minlash
- Oddiy ustav kapitali
- Zaxiralar

- Aktsiyadorlarning o'z mablag'lari
 - Umumiy masuliyatlar va aksiya qimmati
 - Bank majburiyatlari va kutilmagan holatlar
4. Islom bank faoliyatidagi aktiv va passivlar

Islom bankida aktivlarning manbai va kelib chiqishi an'anaviy bankchilik kabi, sof foyda va majburiyatlardan kelib chiqadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, islomiy bank faoliyatida daromad olishning asosiy ustuni aktsiyadorlik kapitalining ichki manbalaridan va majburiyat sifatida tashqi manbalardan olingan aktivlardir. Islom bankida ishlab chiqarish aktivlari, deb tasniflanadi, pul mablag'lari va aktsiyadorlarning o'z mablag'lari yoki omonatchilarning omonatlari ularning shartnomalari bo'yicha likvidlik darajalariga ko'ra tasniflanadi.

Moliyaviy vositachilik tashkilotlarining asosiy faoliyati - kredit berish yoki moliyalashtirish va avans berish. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy vositachi institutlar iqtisodiy firmalar sifatida ikkita bozorda faol. Ular omonatchilardan moliyaviy resurslarni talab qiladilar (depozit bozorida), boshqa tomondan esa ular investorlarga kredit beradi (kredit bozorida) Bu tashkilotlarning daromadi olingan va to'langan foizlar yoki foizlar o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Islomda va boshqa ilohiy dinlarda sudxo'rlik (ribo) ni taqiqlash, shuningdek, qiymat yaratish asoslari sifatida ishlash va qilish islomiy bank xizmatlari va xizmatlarining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi, shuning uchun bankning bu turi Musharaka shartnomalari bo'yicha oldindan aniqlanmagan foyda/daromad stavkasiga ega. Umuman olganda, aktivlarni kredit mahsuloti sifatida sotish quyidagi jadvalga muvofiq bo'linishi mumkin. Garchi, bu mahsulotlarning ko'pchiligi sudxo'rlik sohasiga kirsa -da, lekin Eron kabi islomiy banklar tomonidan ishlatiladi. Islomiy bank amaliyotini qo'llagan ko'plab islomiy mamlakatlarda PLS qisqarishi chuqur rivojlanmagan; Masalan, Malayziyada islomiy bankning PLS paradigmasi passiv tomonga qaraganda aktivlar tarafidan ancha sekinroq bo'lgan. Aktivlar tarafidan, islom bankini moliyalashtirishning atigi 0,5% PLS mudarabah (foyda taqsimoti) va mosharakah (qo'shma korxon) moliyalashtirish paradigmasiga asoslangan.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bidabad, B. Harsini, A. (2003), Religious-economic analysis of usury in consumption and investment loans and shortages of contemporary jurisprudence in finding the rules of religion legislator. Monetary and Banking Research Academy, Central Bank of Iran, 2003.
2. <http://www.bidabad.com/doc/reba-en.pdf>
3. Donald R. Fraser, Benton E. Gup, James W. Kolari, (2001), "Commercial banking the management of risk", South-Western college
4. http://www.rhb.com.my/about_rhb/financial/pdf/AC_31_Mar_07_final.pdf
5. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
6. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3), 35-43.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИМПОРТ ТАРКИБИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ

С.Соатов

ДБҚ божхона институти катта ўқитувчиси

М.Нурматов

Божхона институти 4-курс курсанти

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси импорти таркибини оптималлаштириш бўйича айрим йўналишлар тадқиқ этилган ва уларнинг ҳар бири амалий мисоллар билан ёритилган.

Калит сўзлар: ташқи савдо айланмаси, ташқи савдо баланси, салдо кўрсаткичи, ташқи савдо божхона статистикаси, импортга қарамлик коэффициенти, таъриф усуллари, нотаъриф усуллар.

Аннотация. В данной статье исследованы некоторые направления оптимизации структуры импорта Республики Узбекистан, и каждый из них освещена на практических примерах.

Ключевые слова: внешнеторговый оборот, внешнеторговый баланс, баланс, внешнеторговая таможенная статистика, коэффициент зависимости от импорта, тарифные и нотарифные методы.

Abstract. This article explores some areas of optimizing the structure of imports of the Republic of Uzbekistan, and each of them is highlighted with practical examples.

Keywords: foreign trade turnover, foreign trade balance, balance sheet, foreign trade customs statistics, import dependency ratio, tariff and notarial methods.

Кириш. Маълумки, ҳар бир мамлакатнинг ташқи савдо йўналишида барқарор ўсиш бевосита ижтимоий-иқтисодий ислохотлар билан боғлиқ. Ушбу ислохотлар қаторида давлат иқтисодиётини жаҳон хўжалигига ташкилий, ҳуқуқий, молиявий, бошқарув жиҳатдан яқинлаштириш, жаҳон андозаларини миллий иқтисодиётга қўллаш ҳамда маҳаллий ресурсларидан самарали фойдаланиш кабиларда кўришимиз мумкин.

Шунга кўра, Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги иқтисодий ривожланганлик даражаси кўп жиҳатдан ташқи савдо кўрсаткичларига боғлиқ бўлиб, ушбу кўрсаткичлар - ташқи савдо айланмаси, экспорт, импорт ва сальдо деб номланади. Ўз навбатида, ташқи савдода самарали экспорт ва импорт салоҳиятига эришиш Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятидаги нуфузини янада ошишига замин яратади. Бунда, самарали экспорт деганда – жаҳондаги бошқа давлатлардаги экспортбоп товарлар билан ўзаро рақобатлаша оладиган товарларни ишлаб чиқариш ва уларнинг экспортини йўлга қўйиш тушунилса, самарали импорт деганда – импортни энг қулай ва фойдали даражага келтириш, уни давлат томонидан тартибга солишнинг

ижобий натижа берадиган методларини яратиш ва амалиётга тадбиқ этиш тушунилади. Ўзбекистон ташқи савдо кўрсаткичларини доимий таҳлил қилиб бориш бугунги кунда долзарб аҳамият касб этади.

Хусусан, 2018 йил Ўзбекистон импорти 12,035 млрд АҚШ долл. ва сальдо - 1,956 млрд АҚШ долл. бўлган. 2021 йилга келиб импорт қиймати деярли 2 баробар кўпайди, яъни 23,724 млрд АҚШ долл. ва сальдо эса -9,689 млрд АҚШ долларни ташкил этган. Импортнинг экспортга нисбатан бу каби кескин кўпайиши мамлакат иқтисодиёти учун бир қатор салбий оқибатларни олиб келиши мумкин.

Шу боис, ушбу мақолада мамлакат импорти таркибини оптималлаштиришнинг айрим йўналишлари ва усуллари кўриб чиқилган. Ҳозирги кунда мамлакатимиздаги мавжуд имкониятлардан келиб чиқиб импортни оптималлаштиришнинг қуйидаги усулларида фойдаланиш ва мавжудларини такомиллаштириш муҳим ҳисобланади:

- *товарлар истеъмоли даражасидан келиб чиқиб мамлакатнинг импортга боғлиқлигини баҳолаш;*
- *товар ишлаб чиқариш жараёнларини маҳаллийлаштиришни кенгайтириш;*
- *божхона тўловлари бўйича имтиёз ва преференциялар бериш амалиётини такомиллаштириш;*
- *импорт таркибини оптималлаштириш мисолида миллий бож тариф тизимини такомиллаштириш.*

Товарлар истеъмоли даражасидан келиб чиқиб мамлакатнинг импортга боғлиқлигини баҳолаш. Товарлар истеъмоли даражаси - ижтимоий-иқтисодий вазият, иқтисодий салоҳият, мамлакат ва минтақалар аҳолисининг тўлов қобилияти, миллий бозорнинг импортга қарамлик даражаси, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш, ер ресурсларининг тақсимланганлик даражаси, агросаноат мажмуасининг ривожланиши каби бевосита таъсир этувчи омиллар билан узвий боғлиқ. Мамлакат ва унинг аҳолисини товарларга бўлган талаби ижтимоий ишлаб чиқариш самарадорлиги ва аҳоли даромадларини ошириш билан боғлиқ бўлган макроиқтисодий муаммолардан бири ҳисобланади.

Шу билан бирга, аҳолининг реал талаби асосида озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш кўплаб мамлакатларда асосий ижтимоий муаммога айланмоқда. Хусусан, БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилотининг (ФАО) 2021-йилги ҳисоботида кўра 821 млн.га яқин одам ёки ҳар тўққизинчи киши очарчиликдан азият чекмоқда, бундан ташқари 51 млн.га яқин 5 ёшгача бўлган болаларга очлик туфайли касаллик ва ўлим таҳдид солади ва деярли ҳар йили ушбу болаларнинг 3,1 млн.га яқини очлик ва сифатсиз овқатланишдан вафот этади [6].

Юқоридаги салбий ҳолатларни минимум даражага тушириш учун жаҳон мамлакатларининг озиқ-овқат билан ўзини-ўзи таъминлаш чораларини

кўриш билан бир қаторда импортга қарамлигини ўрганиш бугунги кунда долзарб ҳисобланади.

ФАО томонидан озиқ-овқат хавфсизлигининг асосий мезонлари ишлаб чиқилган бўлиб, унга кўра [6]:

- мамлакат асосий озиқ-овқат билан ўзини-ўзи таъминлаганлик даражаси ушбу давлатдаги умумий истеъмолнинг 70 %идан кам бўлмаслиги керак;

- асосий озиқ-овқат маҳсулотларининг импортига қарамлик даражаси – жами истеъмолнинг 30 %идан кўп бўлмаслиги лозим (1-жадвал).

1-жадвал. Озиқ овқат импортига қарамликни баҳолаш мезонлари ва кўрсаткич формулари [5]

| | Мезонлар | Кўрсаткич | Формула | Кўрсаткич қийматлари |
|---|---|---|--|--|
| 1 | Мамлакатнинг озиқ-овқат мустақиллиги даражаси (ўзини ўзи таъминлаш) | <i>К</i> -ўзини-ўзи таъминлаш; <i>Q</i> – минтақада амалда ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажми; <i>n</i> – минтақа аҳолиси сони; <i>R</i> – истеъмолнинг рационал меъёри (1 йиллик); | $K_{\text{ўз}} = Q * 100 / R * n$ | $K_{\text{ўз}} \leq 70\%$ – наст; $70\% < K_{\text{ўз}} < 90\%$ – рухсат этилган; $90 \leq K_{\text{ўз}}$ – оптимал. |
| 2 | Мамлакатнинг озиқ-овқат импортига қарамлиги | <i>Кқ</i> -озиқ-овқат импортига қарамлиги; <i>I</i> - озиқ-овқат импорти миқдори; <i>E</i> -озиқ-овқат экспорти миқдори; <i>Q</i> – минтақада амалда ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотлари ҳажми; | $K_{\text{қ}} = I * 100 / (Q + I - E)$ | $K_{\text{қ}} > 30\%$ – наст; $10 \leq K_{\text{қ}} \leq 30\%$ – рухсат этилган; $K_{\text{қ}} \leq 10\%$ – оптимал. |
| 3 | Озиқ-овқат баланси | <i>Кб-с</i> -Озиқ овқат баланси | $K_{\text{б-с}} = (Q + I - E) * 100 / R * n$ | $K_{\text{б-с}} < 90\%$ – наст; $90\% < K_{\text{б-с}} < 100\%$ – рухсат этилган; $100\% < K_{\text{б-с}} < 150\%$ – оптимал; $150\% \leq K_{\text{б-с}}$ – баланс бузилган ҳолат |

Жаҳонда юз бераётган импортга қарамлик, мамлакатларнинг кўп миқдорда импорт қилиши билан эмас, озиқ-овқат баланси ва мустақиллиги билан белгиланади. Кўплаб мамлакатларнинг импортга боғлиқ бўлиши давлатларнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш салоҳиятига, хусусан агросаноат мажмуасининг ривожланишига ҳамда истеъмол нархлари индексининг мувозанатига салбий таъсир кўрсатади.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, импорт таркибини оптималлаштиришда озиқ-овқат товарларига нисбатан мамлакатнинг импортга қарамлилик даражасини тўғри баҳолаш, мамлакатда ишлаб чиқарилаётган озиқ-овқат маҳсулотларини жаҳон бозорида рақобатлаша оладиган даражага кўтариш муҳим омил ҳисобланади.

Товар ишлаб чиқариш жараёнларини маҳаллийлаштиришни кенгайтириш. Мамлакат импортини оптималлаштиришнинг яна бир муҳим усули импорт улуши юқори бўлган товарлар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришдир. Маҳаллийлаштириш лойиҳаларини амалга ошириш жараёнида мамлакатимизда юзага келиши мумкин бўлган ҳолатларга тўхталадиган бўлсак, бу борада албатта ўзининг устунлик ва камчиликлари мавжуд. Бу вазиятда бизнинг устун жиҳатимиз республикамиз хом ашё базасининг етарли миқдордалиги ва республикамизда ишлаб чиқаришни ташкил этишда жаҳон бозорига нисбатан электр энергияси, газ ва сув таъминоти нисбатан арзон нархларда етказиб берилишидир. Шунингдек яна бир ижобий томонимиз, юртимизда ишчи кучи етарлилиги ҳам имкониятимизни кенгайтиради[1].

Ишлаб чиқариш жараёнларини маҳаллийлаштиришда аҳамият берилиши керак бўлган яна бир муҳим жиҳатлардан бири бу миллий товарлар тушунчасини ялпи миллий маҳсулотни ташкил қилган товарлар сифатида қарамаслик. Миллий товарлар дейилганда, товарни яратишда зарур бўлган ресурсларнинг қанча қисми миллий хўжаликка тегишли эканлиги билан боғлиқ.


Шундай товарлар борки, у маълум мамлакатда ишлаб чиқарилсада, унинг аксарият ресурслари бошқа мамлакатга тегишли бўлади. Қолаверса, ушбу товарни ишлаб чиқаришда миллий иқтисодиёт маълум фойда кўрса-да, унга ресурс етказиб берувчи мамлакатлар фойданинг катта қисмини ўзлаштиради. Бундай шароитда ушбу товарни ишлаб чиқарган мамлакат миллий товар деб ҳисоблай олмайди ва уни рақобатбардош ҳам дея олмайди. Ҳозирги даврда миллий маҳсулотни ишлаб чиқариш салоҳияти рақобатбардошликни оширишнинг асосий омилдир.

Демак юқоридаги омиллар ҳамда саноат тармоқларида ишлаб чиқариш жараёнини йўлга қўйиш босқичма-босқич амалга оширилишини инобатга олган ҳолда, янги турдаги маҳсулотни ўзлаштиришда хом ашёни тўғри танлай олиш, ишлаб чиқаришни йўлга қўйишда моддий-молиявий ресурслар чеклангани, янги лойиҳани амалга оширишда иқтисодий самарадорлигини ҳисоб-китоб қилиш талаб этилиши, инвесторни жалб этиш ва бошқа шу кабиларни ҳисобга олиш асосий масала ҳисобланади.

Божхона тўловлари бўйича имтиёз ва преференциялар бериш амалиётини такомиллаштириш. Маълумки, имтиёз ва преференциялар қулай ишбилармонлик муҳитини яратишда муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларига қонуний асосда иқтисодий фаолиятни жадал ривожлантириш ва самарадорликни





оширишга йўналтирилган солиқ, божхона ҳамда бошқа мажбурий тўловлар бўйича имтиёз ва преференциялар берилмоқда.

Давлат томонидан божхона имтиёзлари ташқи иқтисодий фаолият (ТИФ) қатнашчиларини қўллаб-қувватлаш, ишлаб чиқаришни ривожлантириш, янги ишлаб чиқаришларни барпо этиш, фаолият кўрсатаётган корхоналарни модернизациялаш, техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлаш, ишлаб чиқаришда зарур бўладиган хом-ашё ва материалларни харид қилиш, киритилган инвестицияларни қоплаш мақсадида берилади. Сўнгги йилларда божхона тўловларидан берилаётган имтиёзлар бир томондан давлат бюджетининг даромадлар қисмига ўзининг таъсирини кўрсатса, бошқа томондан бозордаги соғлом рақобат механизмларининг бузилиши ва улар самарадорлигининг пасайиши, товарлар бозорида имтиёзларни олган тадбиркорларнинг монополлашуви ҳамда улар манфаатларининг устунлиги каби салбий ҳолатлар юзага келишига замин яратиши мумкин.



Шунга кўра, божхона тўловларидан берилаётган имтиёзларни ҳар томонлама доимий таҳлил қилиш, божхона тизимида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш орқали божхона имтиёзларини назорат қилиш механизмларини ишлаб чиқиш бугунги кунда долзарб ҳисобланади.

Божхона тўловларидан берилган имтиёзлар

| | | |
|---|--|---------------|
|  | Президент фармони, қарор ва фармойишлари асосида | 15,2 тр.лн |
|  | Қонун ва қодесқлар | 13,7 тр.лн |
|  | Халқаро шартномалар | 5,3 тр.лн |
|  | Вазирлар Маҳкамаси қарор ва фармойишлари | 3,9 тр.лн |

UZS
сўм

Импорт таркибини оптималлаштириш мисолида миллий бож тариф тизимини такомиллаштириш. Ўзбекистон Республикаси, жаҳон бозорида ўз ўрнини эгаллаши ва ундаги мавқени кенгайтириши учун, мақбул даражадаги протекционистик ва эркин савдо сиёсатини олиб бориш орқали давлат, ички ишлаб чиқарувчиларни чет эл рақобатчиларидан ҳимоя қилиш ҳамда ўзининг фискал сиёсатини шакллантиришда бож тарифи муҳим ўринни эгаллайди.

Бож тариф орқали тартибга солиш асосан қуйидаги иккита мақсадда қўлланилади:

1) Протекционистик – яъни ички ишлаб чиқарувчиларни чет эл рақобатидан ҳимоя қилиш;


2) Фискал – давлат бюджетига маблағ тушишини таъминлаш.

Мамлакатимиз ишлаб чиқарувчиларининг рақобатбардошлигини ошириш, уларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш борасида миллий иқтисодий бож тарифи орқали ҳимоя қилишда қуйидагилар ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқдир:

➤ *Тартибга солиш функциясини кучайтириш ва солиқ функцияларини сақлаб қолган ҳолда бож тариф тузилмасини такомиллаштириш;*

Масалан: Товарларининг ТИФ ТН асосида таснифлаш усуллари амалиётда божхона органи ходимларининг, ташқи иқтисодий фаолият қатнашчиларининг ушбу гуруҳ товарларининг ТИФ ТН асосида тўғри таснифлаши ва ўз навбатида, ташқи иқтисодий фаолиятни тартибга солишнинг бож-тариф ва нотариф чора-тадбирларини тўғри амалга оширишлари учун услубий ёрдам вазифасини бажаради ҳамда бож ставкасига, тўланадиган божхона тўловларига таъсир кўрсатади. Демак, 2017 йилда еълон қилинган Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият товарлар номенклатураси (кейинги даврда ТИФ ТН) ҳамда ТИФ ТН асосида таснифлаш усулларида фойдаланган ҳолда товарларни ТИФ ТН коди белгиланди. **Парфюмерия-косметика товарларининг** ТИФ ТН коди бўйича белгиланган божхона божлари ставкаларини қуйидаги жадвалда кўришимиз мумкин[4]:

| | | |
|------|---|--------------------------------------|
| 3304 | Косметические средства или средства для макияжа и средства для ухода за кожей (кроме лекарственных), включая средства против загара или для загара; средства для маникюра или педикюра | 30, но не менее 0,50 долл. США/kg |
| 3305 | Средства для волос | 20, но не менее 0,50 долл. США/kg |
| 3306 | Средства для гигиены полости рта или зубов, включая фиксирующие порошки и пасты для зубных протезов; нити, используемые для очистки межзубных промежутков (зубной шелк), в индивидуальной упаковке для розничной продажи | 20 |
| 3307 | Средства, используемые до, во время или после бритья, дезодоранты индивидуального назначения, составы для принятия ванн, средства для удаления волос и прочие парфюмерные, косметические или туалетные средства, в другом месте не поименованные или не включенные; дезодоранты для помещений, ароматизированные или неароматизированные, обладающие или не обладающие дезинфицирующими свойствами | 20 |



1-расм. ТИФ ТНда косметик воситалар таснифи

➤ Тариф ва иқтисодий чоралардан фойдаланган ҳолда экспортни қўллаб-қувватлаш, шунингдек, маҳаллий товарларни ташқи бозорларга олиб чиқишнинг янги усулларини топиш;

Масалан: Ўзбекистондан экспорт бўладиган товарларга нисбатан экспорт божхона божи 1997 йилдан буён қўлланилмайди ҳамда хавф профилига асосан экспорт декларацияларнинг 90 % авторасмийлаштирилмоқда.


➤ Тариф ва нотариф тартибга солиш воситаларини бирлаштириш орқали ташқи савдода иқтисодий манфаатларни ҳимоя қилиш имкониятларини яратиш.

Бож тариф орқали тартибга солиш тизимидаги муаммоларни ҳал қилишда қуйидагиларни ҳисобга олиш зарурдир:

➤ тармоқ дастурлари ва модернизация стратегиялари асосида миллий иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда шу асносида товар ва хизматлар рақобатбардошлигини ошириш;

Масалан: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг

“Божхона назорати остидаги товарларга нисбатан юк операцияларини амалга ошириш тартиби тўғрисида” ги 2021 йил 20 августдаги 531-сон қарорига асосан “Юк оператсиялари” ААТ дастури амалиётга жорий этилди.



➤ маҳаллий маҳсулотларнинг рақобатбардошлигини ошириш ҳамда миллий қонунчиликни ЖСТ талабларига мувофиқлаштириш мақсадида импорт божхона божи ставкаларини пасайтириш;

➤ маҳаллий саноатни ривожлантиришнинг мамлакатимизнинг асосий савдо шериклари (Хитой, Россия, Қозоғистон, Туркия ва бошқа) манфаатлари билан ўзаро боғлиқлиги.

Мамлакатда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш мақсадида бож тариф ставкаларини пасайтириш ҳамда ички бозорни тўйинтиришга қаратилган давлат сиёсати аниқ бир меъёردа ушлаб турилиши лозим бўлади.

Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолиятни ривожлантириш ва унинг жаҳон ҳамжамиятидаги нуфузини янада ошириш, мамлакат иқтисодиётини интеграция қилишда тариф усулларини қўллаган ҳолда импорт таркибини оптималлаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 августдаги “Маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4812 сонли Қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2020 йил 5 июнь куни «Божхона маъмуриятчилигини ислоҳ этиш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-6005 Фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 15 мартдаги “Ички истеъмол бозорини асосий турдаги озиқ-овқат маҳсулотлари билан кафолатли таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 408-сон қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги [“Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолиятини янада тартибга солиш ҳамда божхона-тариф жиҳатдан тартибга солиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”](#)ги ПҚ-3818-сон Қарори.\
5. Т.Пардаев, А.Шадманкулов. Божхона тарифлари ва тўловлари. Дарслик. Т.: тафаккур қаноти-2017 й.
6. Халқаро савдо марказининг расмий сайти – “www.Trademap.org”

МАКСВЕЛЛНИНГ УЗЛУКСИЗЛИК ТЕНГЛАМАСИНИНГ БАЁН ҚИЛИШ УСУЛИ

*Халилов Мухаммаджон Тургунович,
Юсунов Абдурашид Хамидиллаевич
Андижон машинасозлик институти*

*Агар Галилей ва Нютонлар инсониятга
механикани тақдим этишган бўлса,
Фарадей ва Максвеллар электродинамикани
тақдим қилишди.*

А.Эйнштейн

Аннотация. Мақолада М.Фарадей томонидан биринчилардан кашф қилинган зарядларни сақланиш қонунини Максвелл томонидан дифференциал шаклда баён қилиш усули келтирилган.

Калит сўзлар: узлуксизлик тенгламаси, зарядларни сақланиш қонуни, зарядлар зичлиги, токзичлигини оқими.

Аннотация. В статье представлен метод дифференциального выражения закона сохранения зарядов Максвелла, открытый М. Фарадеем в дифференциальной форме.

Ключевые слова: уравнение неразрывности, закон сохранения заряда, плотность заряда, зарядный ток.

Abstract. The article presents the method of differential expression of the law of conservation of charges by Maxwell, which was discovered by M. Faraday in a differential form.

Key words: continuity equation, charge conservation law, charge density, charge current.

Тажриба натижаларини умумлаштириб, инглиз физиги М.Фарадей табиатнинг фундаментал қонунларидан бири бўлган зарядларни сақланиш қонунини кашф қилди: электр зарядлари ўз-ўзидан пайдо бўлмайдиган ва йўқолмайдиган, улар фақат бир жисмдан бошқа жисмга ўтади ёки берилган жисм ичида кўчади ва ёпиқ системани ичида электр зарядларининг алгебраик суммаси ўзгармай қолади [5, 6, 14].

$$q_1 + q_2 + \dots + q_n = const \quad (1)$$

Кейинчалик инглизфизиги Жемс Клерк Максвелл 1831-1879 йиллари яшаб ижод қилиб, Фарадей ғоялари, тажрибаларини, қонунларини ўрганиб чиқиб, уларни математик шаклда ёзиш мумкин деган хулосага келади. Бу қўйилган мақсадни мувоффақиятли амалга оширади [1, 5, 6-9].

Бунга мисол тариқасида Фарадейнинг зарядларни сақланиш қонунини математик моделлаштириб, узлуксизлик тенгламасини ёзиб кўрсатади [1-10].

Бу мавзуни электромагнетизмнинг электростатика қисмида баён қилишнинг илжи йўқ, чунки, тенгламада ток зичлигининг оқими мавжуд, шунинг учун Ом ва Жоуль-Ленц қонунларининг дифференциал шакли мавзусидан кейин баён қилинса мақсадга мувофиқ бўлади [4, 10].

Бизга маълумки зарядларни хажми бўйича зичлиги куйидагича аниқланади:

$$\rho = \frac{dq}{dV} \quad (2)$$

Бунда ρ – зарядлар зичлиги, q – зарядлар миқдори, V – хажм. Бу тенгламадан зарядлар миқдорининг ўзгаришини топсак

$$dq = \rho dV \quad (3)$$

Бу ифодадан заряд миқдорини аниқласак

$$q = \int_V \rho dV \quad (4)$$

формулани ҳосил қиламиз. Бу тенламанинг чап ва ўнг томонларини $\frac{d}{dt}$ га кўпайтирсак,

$$\frac{dq}{dt} = \frac{d}{dt} \int_V \rho dV = \int_V \frac{\partial \rho}{\partial t} dV \quad (5)$$

Тенглама ҳосил бўлади. Ушбу тенгликни чап томонидан $\frac{dq}{dt}$ – заряд миқдорининг вақт бирлиги ичида ўзгариши ток кучини ҳосил қилади.

У ҳолда 5-тенгламани куйидаги кўринишда ёзиш мумкин.

$$I = \int_V \frac{\partial \rho}{\partial t} dV \quad (6)$$

Иккинчи томондан ток кучини ёпиқ сирт бўйича ток зичлиги орқали ифодаланиши

$$\vec{I} = \oint_V \vec{j} dS \quad (7)$$

Энди 7 – тенгликни 6- ифодага қўйсак

$$\oint_V \vec{j} dS = - \int_V \frac{\partial \rho}{\partial t} dV \quad (8)$$

Бу тенгламадаги ток кўрилатган хажмдан чиқаётган бўлса, мусбат ишорали бўлади, агар хажмга кираётган бўлса манфий ишорали бўлади, бу бизнинг ҳолатимизга тўғри келади.

Лекин бу тенгламанинг чап томони ёпиқ сирт бўйича, ўнг томонидан эса хажм бўйича интеграллардан иборат, бу тенгламадаги сирт бўйича интегрални, хажм бўйича интегралга айлантириб олиш учун қуйидаги Гаусс – Остраградский теоремасидан фойдаланамиз [4-16].

$$\int_V \operatorname{div} \vec{j} dV = \int_S \vec{A} dS \quad (9)$$

Ушбу ҳолатда 8 тенгламанинг чап томонини қуйидаги кўринишда ёзиб оламиз:

$$\oint_V \operatorname{div} \vec{j} dV = - \int_V \frac{\partial \rho}{\partial t} \quad (10)$$

деб олиб, бу ифодани 8 тенгламанинг чап томонига қўйиб интегралларни қўшиб қуйидаги формулани ҳосил қиламиз.

$$\int_V \left(\operatorname{div} \vec{j} + \frac{\partial \rho}{\partial t} \right) dV = 0 \quad (11)$$

Бизга маълумки, интеграл нолга тенг бўлиши учун, интеграл остидаги ифода нолга тенг бўлиши керак, яъни

$$\operatorname{div} \vec{j} + \frac{\partial \rho}{\partial t} = 0 \quad (12)$$

Бу тенглама зарядларни сақланиш қонунини математик шаклда ифодаланган тенглама бўлиб, Максвеллнинг дифференциал шаклидаги узликсизлик тенгламаси дейилади [3,13-15].

Сўнги келтириб чиқарилган тенглама қуйидаги маънони англатади: берилган хажмдаги заряд зичлиги вақтдан боғлиқ равишда ўзгарса ток зичлигининг оқимини ҳосил қилади [17-21].

Шундай қилиб Максвелл Фарадейнинг зарядларни сақланиш қонунини узликсизлик тенгламаси шаклида ёзиб беради.

Келинг тенгламани таҳлил қилиб кўрайлик. Агар ўзгармас тлк бўлганида заряд зичлиги ҳар бир нуқтада ўзгармас бўлади, унда

$$\frac{\partial \rho}{\partial t} = 0 \quad (13)$$

Шунинг учун ўзгармас ток ҳолатида узликсизлик тенгламаси қуйидаги кўринишга эга бўлади:

$$\operatorname{div} \vec{j} = 0 \quad (14)$$

Бу тенгламанинг физик маъноси, ўзгармас ток чизиқларини боши ва охири ҳам бўлмайди. Унинг моҳияти бу чизиқлар ёпиқ бўлиши мумкин ёки

чексизлик томон йўналган бўлади. Шундай қилиб, силжиш токи j чизиқлари зарядлар зичлигини ўзгартириб турган нуқталаридан бошланади ва тугайди.

Ток зичлиги зарядларнинг ҳаракати билан боғлиқ, шунинг учун буни ўтказувчанлик токи ёки силжиш яъни кўчиш токи деб ҳам айтилади. Ўтказувчанлик токининг чизиқлари ўзгарувчан ток ҳолатида ёпиқ бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. N.Sultonov, "Fizika kursi" darslik, T: Fan va texnologiya-2011
2. K.P. Abduraxmonov, O'.Egamonov, "Fizika kursi" darslik, Toshkent-2010
3. I.V. Savelev "Umumiy fizika kursi" O.T.O'.Yurt. uchun o'quv yordamlanma II tom "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent-1975
4. T.I. Trofimova, "Kurs fiziki", Uchebnik dlya stud. vuzov-M.: "Akademiya" 2007
5. M. Ismoilov, K.P. Habibullaev, M. Xalulin, "Fizika kursi", T: O'zbekiston-2020
6. S.Orifjonov, Elektromagnetizm, "Noshir", Toshkent-2011.
7. Khamidillaevich, Y. A. (2019). Problems of Introduction of Innovative Technologies and Modern Equipment in the Fishing Industry. International Journal of Research Studies in Electrical and Electronics Engineering (IJRSEEE), 5 (4), 23-25.
8. Юсупова, У. А., & Юсупов, А. Х. (2022). ЎЗГАРМАС ТОК ҚОНУНЛАРИ БЎЛИМИНИ ЎҚИТИЛИШИДА НАМОЙИШ ТАЖРИБАСИНИНГ ЎРНИ. *PEDAGOGS jurnali*, 17(1), 210–214.
9. Olimov, L. O., & Yusupov, A. K. (2021a). TEMPERATURE DEPENDENCE OF TRANSISTOR CHARACTERISTICS OF ELECTRIC SIGNAL AMPLIFICATION IN OPTOELECTRONIC DEVICES. *Theoretical & Applied Science*, 8, 169–171.
10. Olimov, L. O., & Yusupov, A. K. (2021b). The Influence Of Semiconductor Leds On The Aquatic Environment And The Problems Of Developing Lighting Devices For Fish Industry Based On Them. *The American Journal of Applied Sciences*, 3(02), 119–125.
11. Olimov, L. O., & Yusupov, A. K. (2022). DETERMINATION OF EFFICIENT OPTICAL SOURCES OF AIR PROPAGATION FOR FISHERIES BIOPHYSICAL DEVICES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(10), 1–8.
12. Olimov, L., Yusupov, A., & Alizhanov, D. (2019). INNOVATIVE FISH FARMING DEVICE. *SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT*, 2(6), 103–107.
13. Olimov Lutfiddin Omanovich, Y. (2020). Problems Of Implementation Of Semiconductored Leds For Fishery Lighting Devices. *The American Journal of Engineering and Technology*, 189–196.
14. Omanovich, O. L., Khamidovich, A. A., & Khamidillaevich, Y. A. (2022). *Scheme of high voltage generation using semiconductor transistors*.

PARAMETERS OF OPTOELECTRONIC RADIATORS AND SPECTRAL CHARACTERISTICS IN DIFFERENT ENVIRONMENTS

Yusupov Abdurashid Khamidillaevich
Andijan machine-building institute

Annotation. In today's developing world, semiconductor light-emitting diodes are replacing traditional lighting sources. Semiconductor light-emitting diodes differ from other types of light sources due to their energy efficiency, long service life, and environmental friendliness. Semiconductor light-emitting diodes emit beams of light with specific wavelengths. The article presents the measurement parameters, characteristics of optoelectronic semiconductor diodes, their manufacturing technologies, and the laws of propagation of light rays in different environments.

Key words: optoelectronic sensors, optical beam energy, photometric quantities, p-n transition, wavelength, speed of light, illuminance, lux, lumen, temperature.

Intraduction. There are photometric quantities that determine the main characteristics in the research of measurement parameters of optoelectronic sensors. In optoelectronics, the main concept is radiation, which refers to the transfer of energy from a light-emitting body to a receiver. According to physical laws, optical rays are electromagnetic waves, and any body emits electromagnetic waves when its temperature is above zero. During this period, the share of optical rays in the spectrum of electromagnetic waves is very small.

Here, the spectrum of optical rays is divided into the spectrum of ultraviolet, infrared and visible rays. The wavelength of ultraviolet rays ranges from 1 nm to 380 nm. Between 380 nm and 760 nm to visible rays, rays from 760 nm to 1 mm characterize the spectrum of infrared rays [5]. Here we can see that although visible rays are a small part of optical rays, they are important in the way of life of mankind. Detection of matter, perception of colors, physical movement, food products from nature, animal and plant life, natural alternative energy resources are all products of visible optical rays. The field of optical rays surrounds us all the time. The effect of this field is characterized by the energy of optical rays. The energy value of optical light is determined by the following expression.

$$W = \frac{hc}{\lambda} \quad 1.$$

Here W is the energy of optical rays, unit [J], h is Planck's constant, $6.62 \cdot 10^{-34}$ Js, speed of light $s=3 \cdot 10^8$ m/s, l is wavelength [m],

Using the relationship between the wavelength and the speed of light, we can write the expression 1. – in the following form.

$$W = h\nu \quad 2.$$

Here n is the beam frequency, unit [Hz].

Usually, the main quantity characterizing optical rays is not the amount of radiation energy, but the amount of radiation current. The amount of optical radiation flow or power is the radiation energy transmitted per unit of time [2].

$$\Phi = \frac{dW}{dt} \quad 3.$$

The unit of luminous flux is Lumen [Lm].

The spatial density of the radiation flux in a certain direction is called luminous intensity. The magnitude of the light power is determined by the ratio of the light flux to the spatial angle.

$$I = \frac{d\Phi}{d\omega} \quad 4.$$

The unit of luminous intensity [Cd] is the candela.

Another important quantity is illuminance, which is measured by the ratio of the light flux itself to the incident surface.

$$E = \frac{\Phi}{\Delta S} \quad 5.$$

If the light falls on the illuminating surface at an angle, the illumination of the surface is directly proportional to the cosine of the angle of incidence of the light [3].

$$E = E_0 * \cos \alpha \quad 6$$

Luminance is a quantity that is equal in quantity to the flux of light radiating from the surface unit of the light source in all directions.

Luminance is a quantity that is numerically equal to the power of light emitted from a unit surface of the source surface in a certain direction and normal to the surface.

$$B = \frac{I}{\Delta S} \quad 7.$$

The unit of clarity is nit [nt].

The relationship between wavelength, frequency, and speed of light is as follows:

$$\lambda = \frac{c}{\nu} \quad 8.$$

$$\nu = \frac{c}{\lambda} \quad 9.$$

$$\vartheta = \lambda \nu \quad 10.$$

When light travels from one medium to another, the speed and wavelength of light change, but the frequency does not. In a medium with a higher refractive index, the wavelength and speed of light are shorter. The propagation speed and wavelength of light in the medium are determined by the following expressions.

$$v = \frac{c}{n} \quad 11.$$

$$\lambda = \frac{\lambda_0}{n} \quad 12.$$

Here n is the refractive index of the medium, λ_0 is the wavelength of light in a vacuum.

Extraction technology

We know that there are natural and artificial sources of light, which are important in the way of life of humans and living organisms. The main part of the natural source of light is the sun. Sunlight reaches the earth's surface in the form of radiation. Its composition forms the spectrum of ultraviolet, infrared and visible rays. Rays in each range lie in a certain wavelength, and they have an effect on the environment and functional development and changes of living organisms [11-12]. Light is important not only in the way of life of living organisms, but also in production, techniques and technologies. Artificial light sources mainly include incandescent, halogen, fluorescent and light-emitting diodes [13-15]. They differ from each other in light wavelength, working principle, energy efficiency, shelf life, power and light flux. Among these light sources, light-emitting diodes are preferred in terms of energy efficiency, high illumination, energy efficiency, and long service life [1, 3-5]. Let's consider the principle of operation of the light-emitting diode, the efficiency of lighting and the impact on the environment.

Although the working principle of white light-emitting diodes is not complicated, the device's manufacturing technology has a complex structure. The methods of obtaining a white light-emitting diode are as follows:

1. Phosphor layer luminophore coating on blue crystals;
2. Covering a number of phosphor layers of luminophore on the ultraviolet color crystals;
3. Generation of white light by mixing the light of three types of monochromatic red, green and blue diodes.

The white light produced by these methods differs from each other in the level of light scattering and the energy consumption of the light-emitting diode.

In the first method, blue crystal is coated with yellow phosphor. In this process, the phosphor absorbs a certain part of the emitted blue light and emits a yellow color. The unabsorbed blue light is mixed with the yellow light from the phosphor to produce near-white light. The main disadvantage of the white light obtained by this method is the low level of light scattering (Fig. 1).




Figure 1. Obtaining white light by coating a blue diode with a yellow phosphor phosphor.

A new technique is to coat UV-emitting crystals with several layers of different phosphor content, which provides excellent color separation, but high energy consumption (Figure 2).




Figure 2. Obtaining white light by coating a red, blue and green phosphor phosphor on an ultraviolet diode.

The white light produced by mixing the light of three types of monochromatic red, green, and blue diodes is distinguished from other methods by its high color index, high light scattering level, and low energy consumption. The disadvantage of this method is that it requires a complex control system to obtain a white light beam (Figure 3).




Figure 3. Blue, green and red diodes produce white light by adding light rays.

Semiconductor light-emitting diodes are connected in parallel to the power source through the following scheme (Fig. 4).




Figure 4. Parallel connection of semiconductor light-emitting diodes.

When the semiconductor is connected in parallel to the energy source of the light-emitting diodes, the current consumed by the energy source is determined as follows (formula 4).

$$I = NI_L = N \frac{U - nU_L}{R} \quad 13.$$

The volt-ampere characteristic of a semiconductor light-emitting diode corresponds to the characteristic of a conventional semiconductor silicon diode [6-8]. The differential resistance in the direct working part does not exceed a few ohms, so a source with a large internal resistance (current source) is required to drive the light emitting diode. Phototransistors, photodiodes, photoresistors and photothyristors can be used as photoreceivers [9-10].

Materials
 Table 1

Wavelength compatibility of emitters made of semiconductor materials [3-8]

| Light-emitting diodes are made of materials | Radiation spectrum range, nm |
|--|------------------------------|
| InGaP ₂ GaN, SiC | 400 – 860 |
| GaP | 600 –700 |
| GaAlAs, GaAs, GaAsP | 700 – 950 |
| AlGaAsSb, GaAsSb | 1000 –2000 |
| InGaAsP – InP | 1000 –2100 |
| InAs, InGaAs, InGaAsSb – InAs, InGaAsSb – GaSb | 1800 – 4000 |

Currently, it is widely used in the preparation of semiconductor light-emitting diode devices, studying various qualitative and quantitative parameters of substances and materials [5]. In these devices, infrared light-emitting diodes made of semiconductor materials with an indium-gallium base are used. Such light-emitting diodes have a high efficiency, strong isolation, and directed radiation flow [4]. However, the external quantum efficiency of these emitters is limited by large radiation losses due to intra-crystal absorption and very small critical angles. If one of the regions of the p-n structure is formed into a Weierstrass sphere or by using chalcogenide glass coatings, these losses can be greatly reduced. The coatings are spherical, and the diameter of the spherical coating is chosen to be 4 times larger than the linear size of the light emitting diode.

Conclusion. Coating of light-emitting diodes does not change their spectral characteristics. At the same time, when using a truncated ellipsoid-shaped coating, the efficiency of the light-emitting diode, that is, the energy efficiency, increases by 3-4 times, and by 1.6% at a temperature of 3000 K. The volt-ampere characteristic of light-emitting diodes is almost linear in the range of 1.5-2.2 V with the initial ignition limit and in the working part [7].

Reference

1. Юсупова, У. А., & Юсупов, А. Х. (2022). ЎЗГАРМАС ТОК ҚОНУНЛАРИ БЎЛИМИНИ ЎҚИТИЛИШИДА НАМОЙИШ ТАЖРИБАСИНИНГ ЎРНИ. PEDAGOGS jurnali, 17(1), 210–214.
2. Khamidillaevich, Y. A. & others. (2019). Problems of Introduction of Innovative Technologies and Modern Equipment in the Fishing Industry.
3. Olimov, L. O., & Yusupov, A. K. (2021a). TEMPERATURE DEPENDENCE OF TRANSISTOR CHARACTERISTICS OF ELECTRIC SIGNAL AMPLIFICATION IN OPTOELECTRONIC DEVICES. Theoretical & Applied Science, 8, 169–171.
4. Olimov, L. O., & Yusupov, A. K. (2021b). The Influence Of Semiconductor Leds On The Aquatic Environment And The Problems Of Developing Lighting Devices For Fish Industry Based On Them. The American Journal of Applied Sciences, 3(02), 119–125.

MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDA ERP TIZIMLARI. MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDA SAP TIZIMLARI

Madaminova Gulhayo

Jo'rayeva Muxlisa

Abduraimova Gulnoza

Tojimatov Isroil

Annotatsiya. SAP SE to'liq korporativ nomidagi "SE" so'zi Societas Europaea ma'nosini bildiradi, bu esa AQShning "Inc" atamasiga o'xshaydi. SAP dasturiy ta'minoti tashkilotlarga biznesning deyarli barcha jabhalarini boshqarishda yordam beradi, moliyadan tortib kadrlar, xaridlar va logistika.

Kalit so'zlar: SAP, ERP tushunchasi, farqi va ishlanishi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda tizim ilovalari va mahsulotlari (SAP) Enterprise Resource Planning (ERP) dasturiy ta'minotining yetakchi global provayderi hisoblanadi. Katta, kichik va o'rta kompaniyalar o'zlarining biznes ma'lumotlarini, operatsiyalarni rejalashtirish, xarid va materiallarni yaxshiroq boshqarish uchun SAP dasturiy yechimlariga tayanadilar. SAP dasturi biznes operatsiyalarining barcha sohalarini birlashtiradi. Bu biznes ilovalarining integratsiyalashgan paketidir. Biznes nuqtai nazaridan SAP mijozlarga buyurtmalar kiritish, sotuvchilardan mahsulot sotib olish, mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish xodimlari, inventarni boshqarish uchun ombor va kitoblarni saqlash uchun moliyalashtirish imkonini beradi. Xyuston mintaqasidagi mehnat bozori juda kuchli va metro hududidagi ko'plab kompaniyalar SAP dan kamida o'z bo'limlarida foydalanadilar, shuning uchun mahalliy darajada ko'plab ishga joylashish imkoniyatlari mavjud. Nemis tilidan tarjima qilingan SAPning asl nomi Tizim tahlil dasturini ishlab chiqish edi. Harflar alohida talaffuz qilinadi. SAP SE to'liq korporativ nomidagi "SE" so'zi Societas Europaea ma'nosini bildiradi, bu esa AQShning "Inc" atamasiga o'xshaydi.

SAP ko'p millatli dasturiy ta'minot sotuvchisi va ERP bozorida etakchi hisoblanadi. Kompaniya hozirda 180 dan ortiq mamlakatlarga xizmat ko'rsatadi va mahalliy, bulutli va gibril joylashtirish modellarini taklif etadi, biroq bulutli hisoblash imkoniyatlari uning ishlab chiqish harakatlarining aksariyat qismiga qaratilgan. SAP ERP ning kamchiliklari sotib olish va joriy etishning yuqori xarajatlari, jumladan, dasturiy ta'minotning o'zi va asosiy infratuzilmani sotib olish, ichki IT xodimlari va tashqi maslahatchilarning mehnat xarajatlari, xodimlarni o'qitish xarajatlari va dasturiy ta'minotga texnik xizmat ko'rsatish va davriy yangilash uchun qolgan xarajatlar; va tizimning murakkabligi, ya'ni amalga oshirish bir necha yil davom etishi mumkin. Mahalliy ERP tizimi sifatida SAP

ECC odatda uch bosqichli mijoz-server arxitekturasida o'rnatiladi. Uchta daraja taqdimot darajasi, dastur darajasi va ma'lumotlar bazasi darajasidir.

Taqdimot darajasi foydalanuvchiga Microsoft Windows yoki macOS dan foydalanadigan har qanday kompyuterga o'rnatilishi mumkin bo'lgan SAP grafik foydalanuvchi interfeysi (SAP GUI) bilan ta'minlaydi. SAP GUI foydalanuvchi va ECC o'rtasidagi aloqa nuqtasidir.

Ilova darajasi ECC ning asosidir. U tranzaktsiyalarni qayta ishlash, biznes mantig'ini bajarish, hisobotlarni ishga tushirish, ma'lumotlar bazasiga kirishni kuzatish, hujjatlarni chop etish va boshqa ilovalar bilan aloqa qilish uchun javobgardir.

SAP dasturi va ERP foydalanish holatlari.

SAP dasturiy ta'minoti tashkilotlarga biznesning deyarli barcha jabhalarini boshqarishda yordam beradi, moliyadan tortib kadrlar, xaridlar va logistika.

Business Suite keng doiradagi biznes ilovalari bilan bir qatorda sohaga xos funksiyalarni ham o'z ichiga oladi. ECCdan tashqari, u CRM, PLM, SCM va yetkazib beruvchilar bilan aloqalarni boshqarish (SRM) modullarini o'z ichiga oladi.

Business Suite yoki S/4HANA-da sanoatga oid ilovalar orasida quyidagilar mavjud:

- Iste'mol sanoati, jumladan, agrobiznes; Iste'mol tovarlari; Moda; Hayot fanlari; Chakana savdo; va ulgurji tarqatish.
- Diskret sanoat, shu jumladan aerokosmik va mudofaa; Avtomobilsozlik; Yuqori texnologiya; va sanoat ishlab chiqarish.
- Energiya va tabiiy resurslar, shu jumladan qurilish mahsulotlari; Kimyoviy moddalar; Tegirmon mahsulotlari; konchilik; Neft, gaz va energiya; va Utilities.
- Moliyaviy xizmatlar, shu jumladan bank va sug'urta.
- Davlat xizmati, shu jumladan mudofaa va xavfsizlik; Federal va milliy hukumat; Kelajak shaharlari; Sog'liqni saqlash; Oliy ta'lim va tadqiqot; va mintaqaviy, davlat va mahalliy boshqaruv.
- Xizmat ko'rsatish sohalari, shu jumladan yuk tashish va logistika; Muhandislik, qurilish va operatsiyalar; OAV; Yo'lovchilar sayohati va dam olish; Professional xizmatlar; Sport va o'yin-kulgi; va Telekommunikatsiya.

Ma'lumotlar bazasi darajasi - bu tranzaktsiyalar va boshqa ma'lumotlarning yozuvlari saqlanadigan joy.

2022 yilga kelib, SAP ko'proq mijozlarni bulut va S/4HANA-ga ko'chirishni davom ettirishga va ikkalasidan ham ilg'or texnologiyalarni, xususan, AI, IoT, katta ma'lumotlar va ilg'or tahlillarni taqdim etish uchun platforma sifatida foydalanishga qat'iy e'tibor qaratdi.

Kengroq ko'rish mijozlarga "aqlli korxonani"ni qurishda yordam berishdan iborat bo'lib, u ko'proq moslashuvchan, innovatsion va natijada muvaffaqiyatli bo'lish uchun sun'iy intellekt, hamma joyda keng tarqalgan tarmoq va insonga

yoʻnaltirilgan foydalanuvchi tajribasidan foydalanadi. Shu bilan birga, SAP rahbariyati texnologiyani yanada ekologik jihatdan barqaror dunyo xizmatiga qo'yish kerakligini aytdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексей Багиров "Big Data простым языком"
2. Александр Сенько "Работа с Big Data в облаках"
3. <https://www.techtarget.com/searchsap/definition/SAP>

SURXONDARYO VILOYATIDA TASHKILQILINGAN AGROKLASTERLARDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Haydarova D.A.

TerDU Iqtisodiyot mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Klaster faoliyati iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda, ishlab chiqarish hajmining o'sishi va tayyor mahsulotni iste'molchisiga yetib borishini ta'minlovchi, turmush darajasining yuqoriligiga va iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlovchi tuzilmadir. Shu jumladan, Surxondaryo viloyatidagi klaster korxonalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni ko'rib chiqish, bu usulning afzallik va kamchilik jihatlarini, mavjud muammolarga yechim izlashga imkon yaratadi.

Viloyatdagi yirik paxta-to'qimachilik klasterlaridan biri bo'lgan "ZAMIN ANGOR CLUSTER" Angor tumanida joylashgan bo'lib, 2021-yil 5-mayda klaster faoliyatini tashkil qilgan. Ushbu klasterga asosiy xizmat ko'rsatuvchi bank "ATB Agro bank Angor filiali" va ikkilamchi banki "Trastbank Toshkent" hisoblanadi. Klaster tarkibida "G'UZOR TEKSTIL IMPLEKS" korxonasi ham tashkil qilingan. "ZAMIN ANGOR CLUSTER" ga jami 5651 gektar yer maydoni birlashtirilgan, shundan klasterda 4715 gektari, 28 ta fermer xo'jaligida 936 gektar yer ajratilgan. Asosiy shug'ullanadigan faoliyati paxtachilik bo'lib, paxtani terish mashinalarida jami terilgan paxta 2022-yil yakuni bo'yicha 21165 tonna va umumiy hosilga nisbatan ulushi 100 % da, shundan klaster tomonidan 19061 tonna, fermerlar tomonidan 100 tonna terib olingan. 2023 yilda jami 23300 tonna paxta terib olish reja qilingan. Ma'lumot o'rnida, klasterlar Germaniya, AQSH va Xitoy davlatlarida ishlab chiqarilgan paxta terish mashinalaridan foydalanib, zamonaviy usullarni qo'llamoqda. Shuningdek, 2022-yilda "Zamin Angor klaster", "Indenim klaster" va boshqalar g'alla hosili bo'yicha o'rtacha hosildorlikni 77-80 sentnerga yetkazib, xirmonga barakali hissa qo'shgan.

Viloyatda 2022 yil aprel holatiga ko'ra 11 ta paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Quyidagi jadvalimizda viloyatdagi paxta-to'qimachilik klasterlari bo'yicha ko'rsatkichlar keltirilgan:

2.3.4-jadval

Surxondaryo viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarining 2022 yil bo'yicha ko'rsatkichlari¹⁶

| Tumanlar | Klasterlar nomi | Birlashtirilgan yer maydoni, ga | Klasterda , ga | Fermer xo'jaligida, ga | Fermer xo'jaligi soni |
|----------|----------------------|---------------------------------|----------------|------------------------|-----------------------|
| Angor | Angor Surxon G'ururi | 5651 | 4700 | 951 | 28 |
| Denov | Surxon Sifat | 8888 | - | 8888 | 328 |

¹⁶ Agro.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

| Tekstil | | | | | |
|--------------------|-------------------------------|------|------|------|------|
| Termiz t. | Indenim Klaster | 2100 | - | 2100 | 72 |
| Oltinsoy | Denov Tekstil Klaster | 2686 | 1108 | 2578 | 103 |
| Uzun | Denov Tekstil Klaster | 3000 | - | 3000 | 124 |
| Sariosiyo | Denov Tekstil Klaster | 2000 | 575 | 1425 | 79 |
| Jarqo'rg'on | Termez Jayxun klaster | 6665 | 1415 | 5250 | 166 |
| Sho'rchi | Sho'rchi Indenim Klaster | 5502 | - | 5502 | 177 |
| Qiziriq | Surxon Kotton Tekstil Klaster | 7684 | | | |
| Muzrobot | Muzrobot Indenim Klaster | 8700 | - | 8700 | 206 |
| Bandixon | Bandixon Tekstil Klaster | 3792 | 369 | 3423 | 192 |
| Sherobod | Surxondaryo Agroxizmat | 7750 | - | 271 | 7750 |
| Qumqo'rg'on | Dream Cotton Textile | 7952 | - | 7952 | 215 |

Jadvalda ma'lumotlaridan, klasterga birlashtirilgan yerlardan katta qismi fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan bo'lib, ushbu korxonalar samarali faoliyat olib bormoqda. Klasterga birlashtirilgan korxonalar rejasiga ko'ra, kelgusi 5 yilda hosildorlikni 2 martaga oshirish, xomashyoni qayta ishlash, soha eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, aholi daromadlari va bandligini oshirish belgilangan. Ushbu korxonalarda paxta xomashyosidan tayyor mahsulotgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish, o'simliklar himoyasi, zamonaviy sug'oruvchi texnologiyalarga o'tish, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish, fermerlarni o'qitish kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion yondashuv natijasida yuqori hosildorlikka erishilmoqda.

Joriy yil davlatimiz raxbarining Surxondaryo viloyatiga tashrifida 6 ta klaster korxonasini rasman ochib berdi, jumladan: Termiz shahridagi "Indenim Cluster", Jarqo'rg'on tumanidagi "Fabullo stroy servis", Angor tumanidagi "Angor Baraka", Termiz tumanidagi "Termiz agro impeks" korxonalar va Sariosiyo tumanidagikichik sanoat zonasi va To'palang gidro elektr stansiyasi. Yangi ishga tushirilgan quvvatlardan biri "Indenim Cluster" paxta-to'qimachilik klasteri bo'lib, paxta tolasini chuqur qayta ishlab, tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Termiz shahridagi mazkur fabrika foydalanishga topshirilishi tufayli 400 ta yangi ish o'rnini yaratilgan. Ushbu 6 ta korxonada jami 2 ming kishi ish bilan ta'minlanadi. Ularning faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganidan 370 milliard so'mlik

mahsulot ishlab chiqarilishi va 20 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilgan. Paxta-to'qimachilik klasterlari qishloq xo'jaligidagi paxtachilik tarmog'i bilan cheklanmasdan, boshqa sohalarni ham rivojlantirmoqda. Masalan, paxta-to'qimachilik klasteri "Denov Tekstil Klaster" tarkibida 2 gektar maydonga zamonaviy gulchilik issiqxonasi faoliyatini yo'lga qo'yishi reja qilingan. Loyihaga 4 milliard so'm investitsiya kiritilib, 20 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Mamlakatimizda klasterlarni yildan-yilga ko'paytirishdan maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlash, aholining ish bilan ta'minlanishi natijasida turmush darajasining yaxshilanishi, qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni tayyorlash, eksportni oshirishga yo'naltirilgan. Bugungi kunda, klasterlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va qilinayotgan tashabbuslar o'z natijasini ko'rsatmoqda.

APPLICATION OF TARIFF PREFERENCES IN DEVELOPED COUNTRIES THAT ARE MEMBERS OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION

Urinov Aslombek

*senior cadet of the customs institute of the Customs Committee
of the Republic of Uzbekistan*

Salomov Sarvar

Tashpulatovich - Chief Inspector of the Faculty of Customs Matter

Annotation. This article is devoted to revealing the importance of tariff preferences applied in accordance with the customs legislation of the two developed countries the United States, Japan and the European Union that are members of the World Trade Organization.

Keywords: World Trade Organization (WTO), United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), General system of preferences (GSP), tariff preferences, beneficiary countries, TARIC (TARif Intégré Communautaire)

As is known, one of the instruments of customs tariff regulation of foreign trade in most countries of the world are tariff preferences. In 1968, UNCTAD approved the General system of preferences (GSP) which provided for the provision by developed countries of preferences for developing and least developed countries or zero rates of customs duties on a number of goods. Within the framework of GATT-1947 and subsequently in the legal system In the WTO system, a “permissive clause” began to operate, granting on an indefinite basis an exemption to most favored nation treatment for the application of preference schemes.

There are currently 13 national GSP modes in the following countries and unions: Australia, Belarus, Bulgaria, Canada, Estonia, EU European Union, Japan, New Zealand, Norway, Russia, Switzerland, Turkey, USA.

It is worth noting that, in relation to the GSP, each Any member of the WTO that grants preferences can set its own criteria by which should match the beneficiary countries. This scheme is advantageous for both developed and beneficiary countries. For example, most States exclude from the scope of the GSP those developing countries that conclude other trade agreements (for example, on a free trade zone) with another country providing preferences under the GSP

Each country sets the criteria for development and the threshold at which the beneficiary country is no longer recognized as such, since it has reached a sufficient level of economic development (*most often in terms of per capita income according to the World Bank*).¹⁷

¹⁷ Применение тарифных преференций во внешне-Торговой практике европейского союза. Мария Потапенко

Let us take a closer look at the tariff preference systems of the European Union (EU), Japan and United states (US).

